

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
Iqtisodiyot va mehnat sotsilogiyasi kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**” Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi
tahlili”**

Bajardi: Tog'ayev B.

Ilmiy rahbar: Islomov Q.

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA

Kirish.

1-BOB. Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shakllanishining nazariy va xukukiy asoslari

- 1.1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi mohiyati va uning xukukiy asoslari.
- 1.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va uning tarkibiy tasniflanishi
- 1.3. Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish usullari

2-BOB. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tahlili

- 2.1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibiy tahlili.....
- 2.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shakllanishining korxona foydasiga ta'sirining tahlili.....

3-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yo'llari

- 3.1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari
- 3.2. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik yangilash va diversifikasiya qilish, inovasion texnologiyalarni keng joriy etish ishlari keng kulamda amalga oshirilmokda. Shu asnoda, mazkur subyektlar moliyaviy munosabatlarini bozor talablariga javob beradigan darajada takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini samarali kamaytirish orqali eksport salohiyati yuksaltirish korxonalarni kelgusida muvofaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu sababli, global moliyaviy inkiroz sharoitida moliya-bank tizimini qo'llab-quvvatlash, sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda yuzaga keladigan muammolarni xal etish va ularning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib xisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “ Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizasiya qilish uchun katta mablag' sarflaymiz, ko'p miqdordagi xorijiy investisiyalarni jalb etamiz. Lekin qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishiga olib kelmoqda.¹” Shuningdek, yurtboshimizning ushbu Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari asarida xamda inkirozga karshi choralar dasturining anik bo'limlari - belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni xal etishga karatilgan. Jumladan, “qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish xisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish. Shu maqsadda 2012 yil xo'jalik

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2011-йилнинг асосий якунлари ва 2012-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси-Т.: Ўзбекистон, 2011. 16- бет.

yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va soxalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foizga tushirishga karatilgan chora tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflarni ma’kullanganini kayd etish lozim.

Shuning uchun, keng institusional isloxotlarni amalga oshirish omillaridan biri, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash xamda xozirgi glabal moliyaviy-iktisodiy inkiroz sharoitida sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishdagi muammolarni xal etish yullarini moliyaviy-iktisodiy asoslarini takomillashtirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chikish lozimligi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o’rganilganlik darajasi Mazkur muammoning nazariy asoslari dastlab A.Smit, A.Tyurgo, J.B.Sey, I.Shumpetr, L.Mizes, F.Xayek kabi klassik iktisodchilar tomonidan tadjik etilgan. Shuningdek, Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish muammolarini xal etish yullarini garb va MDX, mamlakatlari iktisodchi olimlari A.I. Agayev, A.V.Busigin, B.A.Rayzberg, V.Radayev, G.Gross, D.G.Gozibekov, J.Filips, L.I.Abalkin, M.G.Lapusta, R.Xizrich, S.Piters kabilar o’z asarlarida yoritgan. Mamlakatimiz iktisodchi olimlaridan A.V.Vaxobov, A.Sotvoldiyev, M.B.Xamidullin, M.Tulaxodjayeva, M.Sh.Sharifxujayev, S.S.Gulomov, X.N.Jamolov, E.Gadoyev, Yu.M.Itkin kabilar o’z asarlarida mahsulot tannarxi va uni pasaytirish masalalari yoritilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yullarini aniqlash va bu bo’yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chikishdan iboratdir.

Ushbu belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibini o’rganish;
- Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini shakllantiruvchi xarajatlarni tahlil kilish;

- Mahsulot tannarxining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxining korxona faoliyatiga ta'sirini tahlil kilish;
- Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxining rentabelligini aniqlash;
- Iqtisodiy modernizatsiyalash sharoitida Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berish;
- Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining korxona umumiy xarajatlari tarkibidagi o'rniga baho berish.

Bitiruv-malakaviy ishining obykti va predmeti.

Mahsulot ishlab chikaruvchi korxonalar xamda ularning moliyaviy xisobotlari mazkur ishimizning obykti xisoblanadi. Ushbu sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, uni bugungi kundagi holati va uni yanada kamaytirish yullarini aniqlash mazkur ishimizning predmeti xisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.

BMI ning nazariy manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xalkaro mikiyosda yukori baholanayotgan va ijobiy natijalarini mamlakatning taraqqiyoti tajribasi tasdiqlanayotgan tanlangan asarlari to'plamiga kiritilgan kitoblaridan, kuplab makola va chikishlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi vazifalari xakidagi asarlari, asos kilib olingan . Bitiruv malakaviy ishning predmeti tahlil kilinayotgan paytda biz shu masalalarga bevosita alokador bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan kabul qilingan konunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Davlat solik qo'mitasining me'yoriy hujjatlaridan, ommaviy axborot vositalari va turli matbuot organlarida e'lon qilingan materiallaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat

1-Bob. Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shakllanishining nazariy va xukukiy asoslari.

1.1.Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi mohiyati va uning xuquqiy asoslari.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan xamda bugungi kundagi jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi kechayotgan bir sharoitda mamlakatda raqobatbardosh mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatda iste'molchilar extiyojini kondira oladigan arzon xamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish lozimdir. Bunda asosiy kuruladigan masalardan biri mahsulot tannarxini urganib uni imkon kadam pasaytirishdan iborat.

Mahsulot tannarxi - shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlarning qiymat ifodasidir. Maxslot (ish, xizmat) tannarxi - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yokilgi, energiya, asosiy vositalar, Mehnat resurslari, va Boshqa xarajatlarning qiymat bahosi.

Sanoat korxonalarda mahsulot tannarxi xisobi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM ga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot tannarxi tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar korxona mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashib mahsulot tannarxini shakllantiradi:

- Moddiy xarajatlar;
- Mehnatga xak to'lash xarajatlari;
- Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- Amartizasiya xarajatlari;
- Boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar - ishlab chiqarishning asosiy xarajatlaridan biri bo'lib, mahsulot (ish, xizmat) larga qarab jami ishlab chiqarish xarajatlarining 60-80 % atrofida bo'lishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga xom ashyo va materiallarga

qilingan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Xom ashyo va materiallarga qilingan xarajatlar deyilganda, mahsulot sotib olgandan to korxonaga olib kelgunga kadar barcha komission va vositachilik xarajatlar tushuniladi.

Moddiy xarajatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Texnologik maqsadlar va xo'jalik extiyojlariga sarflanadigan yokilgi va energiya xarajatlari;
- Yarim tayyor mahsulotlarni sotib olinishi;
- Mahsulotga tara va upakovka uchun xarajatlar;
- Arzon va tez eskiruvchan inventarlarning eskirishi;
- Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq soliqlar va ajratmalar;
- Ichki ishlab chiqarish bilan bog'liq brakdan yuqotishlar;
- Ishlab chiqarish jarayonida xizmat qiladigan transport xarajatlari;
- Ishlab chiqarishda ishtirok etadigan boshqa xarajatlar.

Mehnatga xak to'lash xarajatlari - bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi ishchi va xodimlar mehnat xaqdari, jumladan rag'batlanttiruvchi va kompensasion to'lovlar uchun xarajatlardir.

Mehnatga xaq to'lash xarajatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Lavozimdagi okladi, tarif stavklaraiga muvofiq anik bajarilgan ishlar uchun to'lovlar;
- Ishchilarga ma'lum bir tartibda berilgan mahsulot qiymati;
- Ishlab chiqarish natijalari uchun okladga qo'shimcha mukofot va ustamalar;
- Ishchilarga tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq ovqat, uy- joy xaqini to'lash uchun xarajatlar;
- Ishchilarga to'lanadigan boshqa ko'rinishdagi xarajatlar.

Mahsulot tannarxi shakllanishida ta'sir etuvchi xarajatlardan biri ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma xisoblanadi. Bu ajratma korxonada shakllanadigan ish xaqi fondiga nisbatan xisoblanadi. Korxonada qancha ish xaqi fondi shakllansa, shu summaga nisbatan 25 foiz ajratiladi. Bunda 25 % dan 24,8 % i davlat pensiya fondiga o'tkaziladi,

0,1% i bandlik fondiga, kolgan 0,1 % i kasaba uyushmalari fondiga o'tkaziladi. Umuman olganda bu 25 %li ajratma davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turishda xamda davlat pensiya fondini shakllantirishda foydalaniladi. Ish xaqi fondi ishchilarga mehnat xaqi to'lash uchun shakllansada, lekin unga qo'shimcha tarzda korxonaning o'zi bu fondga nisbatan ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma to'lashga majburdir. Shuning uchun amaliyotda korxonalar ishchilarga ish xaqi xisoblashda albatta bu ajratmani xam xisobga oladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi boshqa xarajatlar. Bu xarajatlarga korxona mulkini majburiy sug'urta kilish, belgilangan tartibdagi safar xarajatlari, kadrlar tayyorlash bo'yicha xarajatlar, aloqa xizmatlari uchun to'lovlar, brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar, yong'indan saqlash va qo'riqlash xarajatlari, ijara xarajatlari va boshqa barcha ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona) o'z faoliyati natijalaridan ko'prok daromad olishga xarakat qiladi. H,ar qanday korxona nafaqat o'zining tovarini ancha yukori baholarda Sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni Sotishga kilinadigan sarf- xarajatlarni kamaytirishga xam intiladi.

Tovarlarni Sotish baholari asosan korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf- xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni Sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin xar qanday tovarni ishlab chiqarish va Sotish uchun ma'lum sarf xarajatlar talab etiladi.


Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga kilinadigan barcha sarflar tushuniladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materillar, yonilgi va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizasiyasi, ish xaqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarni ikkiga bo'lib

кадоқлаш, саралаш, транспортга ортиш, ташиш ва сақлаш харажатлари қўшимча муомала харажатлари ҳисобланади. Муомала харажатларининг бу турлари ишлаб чиқариш харажатларига яқин туриб, товар қийматига киради ва унинг қийматини оширади. Харажатлар товарлар сотилгандан кейин олинган пул тушум суммасидан қопланади.

1.1.1-чизма

Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш ва уни сотиш билан боғлиқ харажатлар



o'rganish mumkin: bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari deganda mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun kilinadigan barcha sarflar (ish xaqi, xom ashyo va material sarflari, amortizasiya va x.k) tushuniladi. Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda mikdoriga kam. Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni Sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi. Ular ikki guruxga bo'linadi: qo'shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tovarlarni o'rash, chizmada korxonada mahsulot ishlab chiqarish xamda muomala xarajatlari va ularning tarkibini ko'rishimiz mumkin. Demak bunda ishlab chiqarish xarajatlariga yukorida ta'kidlaganimizdek xom ashyo materiallari, yoqilgi va moylash xarajatlari, ish xaqi

xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, amortizatsiya xamda boshqa xarajatlar kiritilgan. Muomala xarajatlari davr xarajatlari ham deb ataladi. Sof muomala xarajatlari (sotuvchi maoshi va boshqalar), marketing (iste'molchilik talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan koplanadi. Hozirgi zamon sarf-xarajatlar g'oyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxona o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish xaqi, xom ashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa xar xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov xujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb xam ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslar foydalanish bilan bog'liq xarajatlar **ichki xarajatlar** deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ichki va tashqi xarajatlarga ajratilishi



Mazkur korxona doirasida tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov-normal (me'yoridagi) foyda xam, renta va ish xaqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi xisoblanadi.

Sarf xarajatlari ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona iktisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga karab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlari ham farqlanadi.

Ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga (kiskarish yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning xajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlari **doimiy xarajatlari** deyiladi.

Doimiy xarajatlari ishlab chiqarish xajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga xam bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, xatto nolinch xajmida xam mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizasiya ajratmalari, ijara xaqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalariga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chikariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish xajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilgi-transport xizmati, ishchilar ish xaqi va shu kabilarga kilinadigan sarflar kiradi. Ishlab chiqarishning xar bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yigindisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga kilinadigan sarf xarajatlarni xisoblash uchun O'rtacha umumiy, O'rtacha doimiy va O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

O'rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chikarilgan tovar miqdoriga nisbatiga teng. O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarni ishlab chikarilgan mahsulot miqdoriga bulish yuli bilan aniklanadi. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarvchi xarajatlarni ishlab chikarilgan mahsulot miqdoriga bulish yuli bilan aniklanadi.

Eng yukori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash zarur. Bunda iktisodiy tahlil vositasi bo'lib qo'shimcha . xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Avvalo qo'shimcha xarajat deb, keyingi kushilgan mahsulotlarning xar bitta birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha . xarajatlarga aytiladi. Kushimacha xarajatlarni xar bir navbatdagi chikarilgan qo'shimcha mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin.

Korxona foydalanadigan kuplab resurslar miqdori, ya'ni jonli Mehnat, xom-ashyo, yonilgi va energiya sarflari tovar xajmining o'zgarishiga tez va oson ta'sir qiladi. Boshqa resurslar sarfi ta'sirida tovar xajmi o'zgarishi uchun uzoq vakt talab kilinadi. Masalan, og'ir sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlari ancha uzoq vakt oralig'ida mahsulot miqdorini o'zgartirishiga ta'sir kilishi mumkin. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olishga vakt omili, ya'ni xarajat qilingan pirovard natijasi olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vakt omilidan kelib chikib, ishlab chiqarish xarajatlarini kiska va uzoq muddatli davrda aloxida tahlil kilinadi.

Korxona ishlab chiqarish xajmini o'zgartirish uchun kiska muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu kiska muddatli xarajatlardir.

Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish inshootlari maydoni, mashina va uskunalar miqdori) doimiy bo'lib koladi, xamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli davr - bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini xam o'z ichiga olgan, bugun band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir. Bu davr davomida Boshqa tarmoqlar faoliyat kilib turgan korxonalar mazkur tarmoqqa kirib kelishi mumkin.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishi takozo qilingan kiska va uzoq muddatli davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxona xususiyatidan kelib chikib farqlanish mumkin. Masalan, yengil sanoat tarmogida kiyim kechak ishlab chikaradigan kichkina firma, bir necha qo'shimcha tikuv mashina urnatish bilan o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini kiska vaktida (bir necha kunda) oshirish mumkin. Og'ir sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun bir necha yil talab kilinadi. Okibat natijasida barcha xarajat turlari o'zgaradi va o'zgaruvchi miqdorlar bo'lib koladi.

1.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va uning tarkibiy tasniflanishi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida eng asosiy masalalardan biri mamlakatda jaxon talablariga javob beradigan, sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish xisoblanadi. Bunda ko'riladigan asosiy maqsad arzonrok xamda raqobatbardosh, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Buning uchun ishlab chikarilayotgan mahsulot tannarxi o'rganib, uni imkon qadar pasaytirish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda mahsulot (ish, xizmat)lar xisobi 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli karoriga ilova Mahsulot(ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va Sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'ri sidagi

Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Bugungi kunda amalda bo'lgan ushbu Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradigan moddalar sirasiga o'zgartirishlar kiritilgan. ***Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini aniqlashdan maqsad:***

1. Buxgalteriya xisobi schyotida jami xarajatlar tug'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, korxona faoliyatini rentabelligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlash;
2. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini anik xisob-kitobini kilish;
3. Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni aloxida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaviylikka boglash;
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini yuzaga chikishi va javobgarlik markazlari bo'yicha xisobga olish va nazorat kilish;
5. Solik to'lanadigan bazani anik xisob-kitobini yurtish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari xamda korxona sarflarini Boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chikarayotgan mahsulotlari tannarxini tahlil kilishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish va ularning holati ga baho berish;
- Mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha belgilangan rejani bajarilishi va dinamikasini nazorat kilish;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini iktisodiy elementi va kalkulyasion moddalari bo'yicha o'rganish va ularga baho berish;
- Mehnat unumdorligi bilan ish xaqi xarajatlari urtasidagi nisbatni o'rganish ;
- Tannarxning o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni mikdor jixatidan xisoblash;
- Ayrim turdagi mahsulot tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil etish;
- Tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va xakozo.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olishning umumiyligi ta'minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat kilishga imkoniyat tugiladi.

Mazkur Nizom buxgalteriya xisobi maqsadlarida va Soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni xisoblash tartiblaridagi farqlanishlarini xisobga olib ishlab chikilgan. Bunda tahlil kilishning asosiy maqsadi Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida raqobatga bardoshligini aniqlashdir.

Nizomda buxgalteriya xisobi bo'yicha foyda bilan Soliqqa tortiladigan foyda urtasidagi tafovutlarga izox berilgan.

Soliqqa tortiladigan foyda buxgalteriya xisobidagi foydadan farq kilishining sababi shundaki, davlat solik siyosatiga muvofiq amaldagi solik konunchiligi bo'yicha korxona xarajatlarining bir qismi Soliqqa tortiladigan bazaga kirmaydi. Nizomda moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy koidalari va xarajatlarni guruxlash berilgan. Birinchi ilovada korxona xisobot davridagi balans foydasini xisoblashda chegiriladigan, lekin Xo'jalik subyektlarning Soliqqa tortiladigan bazasiga kushiladigan xarajat moddalari berilgan. Ikkinchi ilovada xarajatlar amalga oshirilishi paytida Soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, lekin keyingi davrlarda chegiriladigan xarajatlar ruyxati berilgan (vakt bo'yicha farqlanishlar).

Uchinchi ilovada foydasi emas, daromadi Soliqqa tortilayotgan korxonalar uchun qo'shimcha chegirilmaydigan xarajatlar ruyxati berilgan.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari tannarxini tahlil kilishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- Xo'jalik subyektlarining biznes reja ma'lumotlari;
- 5-S "Korxona sarf-xarajatlari to'g'risida"gi xisoboti ma'lumotlari;
- 1-T "Mehnat xisoboti" ma'lumotlari;
- Buxgalteriya xisobining ishlab chiqarish xarajatlarini xisobga olib boruvchi schyot ma'lumotlari va boshqa turdagi qo'shimcha ma'lumotlar.

Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki kayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xom- ashyo, materiallar, yokilgi, energiya, asosiy vositalar (amortizasiya), Mehnat rusurslari va Boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarining qiymat kurinishini ifoda etadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishni tashkil kilish uslubi va texnologiyasi bilan belgilangan mahsulotni ishlab chiqarish (ish, xizmatlar bajarish) bilan bevosita bog'liq xarajatlar kiritiladi. Bularga: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita Mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish yo'nalishidagi ustama xarajatlar xamda Boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

-tashqaridan sotib olinadigan ishlab chikariladigan mahsulot tarkibiga kirib, uning asosini tashkil etadigan yoki mahsulot tayyorlashda (ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda) zarur komponent xisoblanadigan xom-ashyo va materiallar;

-mahsulotni urash xamda Boshqa ishlab chiqarish zaruriyatlari uchun sotib olingan materiallar, ta'mirlash uchun extiyot qismlar, moslamalar va Boshqa Mehnat buyumlari;

-texnologik maqsadlar, binolarni isitish, barcha turdagi energiyani ishlab chiqarish uchun sarflanadigan chetdan sotib olingan yokilgining xamma turlari;

-korxonaning texnologik, tarnsport va Boshqa ishlab chiqarish, shuningdek, Xo'jalik zaruriyatlariga sarflanadigan sotib olinadigan barcha turdagi energiya;

-tabiiy kamayishining me'yor chegarasidagi moddiy resurslarning kamomadi va bo'zilishlaridan yukotishlar;

Ishlab chiqarishdagi mex;natga x;ak to'lash xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

-korxonada kabul qilingan Mehnatga xak to'lash shakl va tizimlariga muvofiq ishbay xaklari, tarif stavkalari va mansab okladlari asosida xakikiy bajarilgan ishlar uchun ishlab chiqarishdagi xisoblangan ish xaqi;

-natura shaklida xak to'lash tartibi bo'yicha beriladigan mahsulot qiymati;

-amaldagi tartiblarga ko'ra rag'batlantiruvchi to'lovlar, jumladan, ishlab

chiqarish natijalari uchun mukofotlar (natural mukofotlarni kushgan xolda) ta'rif stavkalari va okladlarga kasb maxorati uchun qo'shimcha ustama to'lovlar, amaldagi konunchilikka muvofiq kup yillik xizmatlari uchun (shu Xo'jalikda bir ixtisoslikdagi ish staji uchun) ishlab chiqarish xodimlariga beriladigan takdirlanishlar, mukofotlar, kasb maxorati uchun ta'rif stakalar va okladlarga nisbatan) ustama to'lovlar, xarakatdagi konunchilikka muvofiq kup yillik xizmatlari uchun ishlab chiqarish xodimlariga beriladigan takdirlashlar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq tovon to'lovlari, jumladan, tungi ish vakti, ish vaktidan so'nggi ish uchun to'lovlar.

Amaldagi Nizomga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha xarajatlari quyidagi guruxlarga ajratiladi:

- 1) Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kushiladigan xarajatlar;
 - A) Ishlab chiqarish tannarxiga kushilmaydigan xarajatlar, ammo, davr xarajatlariga kushiladigan xarajatlar (asosiy faoliyatdan kurilgan foydani aniqlash uchun);
- 2) Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan kurgan foyda yoki zararini aniqlashda xisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari.
- 3) Favkulodda zarar (solik to'lashga kadar aniklanadigan foydani xisoblashda ishtirok etadigan).

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlarini yukoridagi tarkib bo'yicha guruxlanganda, xar bir gurux xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

***1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar
quyidagicha turkumlanadi:***

- a) Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) Bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- v) Ishlab chiqarishdagi ma'muriy xarajatlar.

2. Davr xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

- a) Sotish bo'yicha xarajatlar;
- b) Boshqaruv xarajatlari;

v) Boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni quyidagicha turkumlanadi:

a) Foizlar bo'yicha sarflar;

b) Chet el valyutasi kursi o'zgarishidan kurilgan zarar;

v) K,immatli kog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni kayta baholashdan kurilgan zarar;

g) Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarf xarajatlarni.

4. Favkulotda zararlar odatda turkumlanmaydi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarga ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Moddiy xarajatlari;

-Mehnat xaki xarajatlari;

-Ishlab chiqarish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlarni.

Bevosita moddiy xarajatlari mehnat xaki bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni tashkil etadi.

Mehnat xaki va ishlab chiqarish xarakteridagi ma'muriy Boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarini tashkil etadi.

Moddiy xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda tulik ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bulmagan barcha xarajatlarga noishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ular tarkibiga Sotish bilan bog'liq xarajatlarni, ilmiy tekshirish va tadkikot xarajatlari, umumiy va ma'muriy Boshqaruv xarajatlari, Boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to'lovlari va Boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bulmagan, xarajatlarni kiritiladi.

Mahsulot tannarxini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar quyidagilarni tashkil etadi.

1. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat;

2. Takkoslanadigan mahsulot tannarxi;
3. Mahsulot birligining tannarxi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidagi xarajatlarni yukoridagi kurinishda turkumlash bilan bir katorda yana quyidagi xususiyatlari bo'yicha %am tasniflab chikishimz mumkin.

Yuzaga chikish shakliga ko'ra:

- asosiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- tasodifiy, favkuloddagi xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga kushilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.

Yuzaga chiqish o'rni bo'yicha:

- bo'lim bo'yicha qilingan xarajatlar;
- sex bo'yicha qilingan xarajatlar;
- uchastka bo'yicha qilingan xarajatlar va xakozo.

Sotish xajmiga xisobdan chiqarilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;
- davr xarajatlari.

Davriga ko'ra:

- joriy davr xarajatlari;
- kelgusi davr xarajatlari.

Soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashda xisobga olinishiga ko'ra:

- Soliqqa tortiladigan bazaga kayta kushiladigan doimiy tafovutlar;
- Soliqqa tortiladigan bazaga kushiladigan davri bo'yicha tafovutlar;
- Soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda xisobga olinmaydigan xarajatlar.

Mahsulot xajmining o'zgarishiga muvofiq:

- o'zgaruvchan xarajatlar;

- o'zgarmas xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga kushilishiga karab:

- to'g'ri xarajatlar (bevosita);
- egri xarajatlar (bilvosita).

Moliyaviy natijalarga daxlsizligi bo'yicha:

- mahsulot tannarxiga kushiladigan xarajatlar;
- foyda xisobidan koplanadigan xarajatlar.

Tahlil etishda o'rganish obyekti va maqsadidan kelib chikkan xolda korxona xarajatlarning u yoki bu turkumi bo'yicha o'zgarishlar va o'zgarish sabablariga baho beriladi. Taqqoslash yoki kiyosiy o'rganish da joriy davr va utgan yil ma'lumotlari, biznes reja ko'rsatkichlari, O'rtacha ko'rsatkichlar va tarmoq bo'yicha Boshqa ma'lumotlar olinadi. Taqqoslashda ko'rsatkichlar bo'yicha mutlok o'zgarishlar nisbiy ko'rsatkichlarni qo'llash orqali to'ldiriladi.

1.3. Maxsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish usullari

Yuqorida keltirilgan xarajatlarning turkumlanishi, ta'kidlanganidek, korxona rahbariyati tomonidan rejalashtirish, tahlil, qilish soliqlarni tug'ri hisoblash va tulanishi uchun ishlatiladi. Shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish maqsadida ularni samarali sarflanishini, mahsulot ishlab chiqarish va realizsiya qilish hajmi oshishini, uning sifatini oshirilishini ta'minlash uchun uchun ishlatiladi. Shu bilan birga xarajatlar nazoratini tug'ri va ustalik bilan olib borish uchun ularni ifodalovchi kursatkichlarni bilish va ishlata olish zarur. Ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xarajatlari turlari buyicha summasi;
- xarajatlar dinamikasi;
- xarajatlar darajasi va ularning farqi;

- bazis davri va biznes reja ma'lumotlari bilan solishtirilishi natijasida xarajatlarning mutloq va nisbiy farqlari;

Ishlab chiqarish xarajatlari summasi korxona, bulim buyicha alohida mahsulot (ish, xizmat) turlarining aniq bir davri uchun ishlab chiqarish xarajatlarining puldagi uzgarishini xarakterlaydi. Ular asosida, ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga, bir necha yillik dinamikasiga va ularning uzgarishi tug'risidagi axborotlarga miqdoriy baho berish mumkin.

Bu kursatkich menedjerlarga xarajatlarni ular turlari buyicha va butunlay rejalashtirish, shuningdek, zarur bulgan tovar-material zahiralarini, mehnat va moliyaviy resurslarni sotib olish buyicha pul mablag'larini ajratish uchun kerakdir.

Xarajatlar tarkibi ularning umumiy summasi tarkibidagi alohida xarajat turlarining ulushini aniqlash bilan birga xom ashyo va materiallar ishlatiladigan, avtomatlashtirilgan, mehnat va mexanizasiya darajasi yuqori bulgan korxonalarning materialtalabligini va mehnattalabligini tahlil qilish uchun zarurdir. Xarajatlar tarkibining uzgarishini urganish kelgusi davr xarajatlari tarkibini yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish buyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xarajatlar tarkibini aniqlash uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobatning «Daromadlar va zararlar haqida hisobat» 2-shakl, «Buxgalteriya balansiga ilova» 5-shakllardan, shuningdek, «Ishlab chiqarish xarajatlari haqida xisobat» statistik hisobatdan olinadi.

Xarajatlar darajasi bu tayyor, tovar yoki sotilgan mahsulot bir sumiga to'g'ri keadigan xarajatlardir. Bu xarajatlar samaradorligini, dinamikasini va ularning nisbiy farqini hisoblash uchun zarur bo'ladi.

Xarajatlar darajasi (X_d) asosiy faoliyat xarajatlarini (A_{fx}) sotilgan mahsulot hajmi (M) ga nisbati bilan aniqlanadi.

$$X_d = A_{fx} : M \cdot 100$$

Ishlab chiqarish xarajatlari darajasini hisoblash uchun ma'lumotlar 2 – shakl « Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobatdan olinadi.

Xarajatlar dinamikasi xarajatlar summasi va darajasini utgan va bazis davriga nisbatan uzgarishini xarakterlaydi. U mutloq va nisbiy farqlarda usish sur'atida kupayish tezligi kabi kursatkichlar bilan aniqlanadi.

Masalan, realizasiya qilingan mahsulotlar iishlab chiqarish tannarxi 2011 yili 6947 ming summani, 2012 yili 11427 ming sumni tashkil qilgan. Xarajatlarning mutloq kupayishi 4480 ming sumni (11427-6947), usish sur'ati – 164,5% ($11427:6947 \times 100$) ni, kupayish tezligi – 64,5% (1645-100)ni, tashkil qilgan ko'rsatkichning kupayishi 69,5 ming sumni tashkil qilganligi uning mutloq mohiyatini belgilash uchun ham asos bo'ladi. Bizning misolimizda xarajatlarning 1,0 % ga kupayishi (yoki kamayishi) utgan yilga nisbatan xarajatlarni 69,5 ming sumga uzgarishi mumkin.

Xarajatlar dinamikasini ifodalovchi kursatkichlar tahlilchilar va auditorlarga to'g'ri xulosa chiqarib, tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Menejerlar uchun xarajatlarni kamaytirish va tejash buyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bulib xizmat qiladi.

Xarajatlar dinamikasini urganishda daromadlar umumiy summasini,

sof tushumni va xarajatlarning umumiy miqdori uzgarish su'ratini solishtirish zarur. Daromadlar usish sur'atining xarajatlarga nisbatan balandligi foyda va rentabellikni ortishini kursatadi, ya'ni bu korxona faoliyati samaradorligining oshganligidan dalolat beradi.

Xarajatlarning mutloq farqi haqiqatda qilingan xarajatlarni biznes-reja yoki bazis davri ma'lumotlari bilan solishtirish orqali hisoblanadi. Bu kursatkich asosida qilingan xarajatlarning miqdor jihatdan uzgarish haqida xulosa qilinadi, masalan, necha summaga butun xarajatlar yoki ularning turlari buyicha oshganligi aynan shu yo'l bilan aniqlanadi.

Xarajatlar uzgarishini aniqroq ifodalash uchun ularning **nisbiy chetlanishini** hisoblash zarur, ya'ni bazis davri yoki biznes-rejaga nisbatan xarajatlar buyicha tejalishini yoki ortiqcha sarf qilinishini aniqlash lozim bo'ladi.

Nisbiy farq ishlab chiqarish tannarxi darajasini aniqlash bilan hisoblanadi.

Xarajatlar buyicha tejash yoki ortiqcha sarf qilinganligini, ya'ni xarajatlarni nisbiy farqlarini aniqlash uchun xarajatlarni haqiqiy va bazis davr daraja kursatkichlari orasidagi farqni haqiqatda realizasiya qilingan mahsulot summasiga kupaytirish yo'li bilan aniqlash mumkin.

$$D Xar_{as.fao} = (Dar_{xaq. xar} - Dar) \cdot Real_{xaq_{baz. xar}}$$

Bunda: $D Xar_{as. fao.}$ - xarajatlarni nisbiy farqi

(tejam yoki ortiqcha sarf);

$Dar_{xaq. xar}$ - xarajatlarning haqiqiy darajasi;

$Dar_{baz. xar}$ — xarajatlarning asos davridagi darajasi;

Real_{haq} - hisobat davrida haqiqatda realizasiya qilingan mahsulot summasi.

Keyinchalik ichki va tashqi omillarni korxonaning xarajatlar hajmiga ta'sirini hisoblash va urganish zarur. Korxonaning xarajatlar darajasiga va summasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarilgan va realizasiya qilingan mahsulot hajmi;
- Xom ashyo va material xarajatlari;
- Ishlab chiqarish xodimlari va boshqaruv personalining miqdoriy va sifat tarkibi;
- Ishchilarning mehnat unumdorligi;
- Boshqa tashkilotlarning xizmatlari va ta'rifi;
- Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning ishlatilishi samaradorligi;
- Joriy (oborot) mablag'larining ishlatilish samaradorligi;
- Xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan shartnomaning uz vaqtida va sifatli tuzilishi va tulov-hisob intizomining tashkil etilishi.

Bu omillarning har biri u yoki bu xarajatlarga ta'sir qilib uzining hisoblash usuliga ega. Korxona rahbarlari, analitiklar va auditorlar xarajatlarni urganish va tahlilchi qilishida bu omillarning ta'sirini hisoblashni bilishi kerak, har bir faktorni alohida tahlil qilib, ular asosida mablag'larning tejamkorlik bilan sarflanishi va kamayish imkoniyatlarini aniqlab, xarajtlar samaradorligi buyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli va tavsiyalar maslahatlar ishlab chiqarishlari lozim.

Hisoblash uchun ma'lumotlarni «Foyda va zararlar tug'risida»gi 2-shakl, ya'ni moliyaviy hisobotdan olamiz. Shuning bilan birga

xarajatlarni uzgaruvchi va shartli doimiy xarajatlarga bulinishini hisobga olish kerak. Uzgaruvchi xarajatlarga «sotilgan tovarlar, mahsulot, ish, xizmat tannarxi»ni va «tijorat xarajatlari»ni kiritish mumkin. Doimiy xarajatlarga (ishlab chiqarish hajmiga va mahsulot realizatsiyasiga tobe bulmagan) quyidagilar kiradi: «Boshqaruv xarajatlari», «Realizatsiyaga taalluqli bulmagan xarajatlar» va «Favqulodda xarajat»lar.

Uzgaruvchi xarajat moddalari yuqorida ta'kidlanganidek ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot hajmiga tobe bulib, ularning uzgarishiga muvofiq ravishda uzgaradi.

Uzgaruvchi moddalar summasiga realizatsiya qilingan mahsulot hajmi uzgarishining ta'sirini aniqlash uchun realizatsiya qilingan tovarlar summasining farqini sotilgan tovar, mahsulot, ish, xizmatlarning tannarxini bazis darajasiga kupaytirish kerak. Hisob quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$\Delta Xar = (Real_{\text{haq. sotil}} - Real_{\text{bazis sotil}}) \cdot Dar_{\text{bazis har}}$$

Bunda: ΔXar – xarajatlar summasining farqi;

$Real_{\text{bazis sotil}}$ - bazis davrida realizatsiya qilingan mahsulot summasi;

$Dar_{\text{bazis xar}}$ - bazis davridagi xarajat darajasi.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili va baholanishi

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usuli va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish bilan bog'liqdir.

Mahsulot birligiga qilingan material, mehnat va moliyaviy xarajatlarning

umumiy summasi mahsulot tannarxi deyiladi.

Mahsulot (ish) tannarxini quyidagi kalkulyasiya metodlarining biri yordamida aniqlash mumkin:

- Xarajatlarning namunaviy kalkulyasiyasi;
- Jarayonli kalkulyasiya;
- Normativ kalkulyasiya.

Tannarxning namunaviy kalkulyasiyasi maxsus buyurtma, bir tuda tovar va shartnoma tannarxi kalkulyasiyasini ifodalaydi.

Tannarxni namunaviy kalkulyasiya usuli kompaniya iste'molchidan kalkulyasiya qilinayotgan mahsulotning bir guruh yoki bir birligini ishlab chiqarish buyurtmasini olganda qullaniladi, masalan, qurilishda, tipografiyalarda, aviasozlikda, mebel fabrikalarida mashinasozlikda, remont ishlarini amalga oshirishda, auditorlik yoki konsultasiya xizmatlarini kursatishda va boshqalar.

Kalkulyasiyaning namunaviy metodi buyurtma bajarish hajmiga bog'liq holda uch turga bulinadi:

1. buyurtma tannarxining kalkulyasiyasi;
2. tovar partiyasi (guruhi) tannarxining kalkulyasiyasi.
3. shartnoma tannarxining kalkulyasiyasi.

Buyurtma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Buyurtmani bajaruvchi korxonalar mahsus bir martalik tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar.

Ushbu holatda firma ommabop ishlab chiqariladigan mahsulot sifat standartidan yuqori mahsulotga bulgan talabni qondirishi kerak. Agar

bunday sifatli mahsulot ishlab chiqarmasa, ishlab chiqarishga boshqa korxonalarni jalb qilmasligi va mahsus rejalashtirish va uskunalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Namunaviy metodda kalkulyasiya qilinadigan mahsulotlarga qilinadigan xarajatlarni tahlil qila turib buyurtmalarning kalkulyasiya kartochkasida kursatilgan haqiqatda qilingan xarajatlarni dastlabki hisoblar bilan solishtirish kerak.

Buyurtmaning kalkulyasiya kartochkasi iste'molchining har bir buyurtmasi buyicha ochiladi va unda quyidagilar kursatiladi;

- zaxiradan olingan materiallar (buyurtma asosida);
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi (buyurtmani bajarishga sarflangan vaqtni hisobga oluvchi tabel kartochkasi asosida);
- tug'ri xarajatlar (schyot fakturalar asosida).

Buyurtmani bajarilishida kalkulyasiya kartochkasida tug'ri xarajatlarning jami summasi chiqariladi. Bundan keyin bu metodlarning biri asosida ushbu buyurtmaga kiruvchi qushimcha xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Agar hisobat davrining oxirida buyurtma tugallanmagan bulsa, jami xarajatlar ma'lum bir sanaga kalkulyasiya kartochkasiga yozib quyiladi va u tugullanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi.

Mahsulotning narxi belgilanishga namunaviy usulning tannarx kalkulyasiyasini tug'ri aniqlanishiga bog'liqdir.

Mahsulot narxining oshib ketishi buyurtmachilarning qochishiga olib keladi. Buyurtma bajarilishi narxining pasayishi foydaning kamayishiga

yoki ushbu buyurtmaning zarar keltirishiga olib keladi.

Mahsulot tannarxi yana bir birlik mahsulotga qilinadigan qushimcha xarajatlar ulushining hisobiga, ishlab chiqarish hajmiga ham bog'liq.

Ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishi har bir buyurtma mahsulotining narxiga ta'sirini kursatadi.

Shuning uchun, buyurtmalar buyicha mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat kursatuvchi korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyasiyasi tug'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega va u asosida mahsulot (xizmat) bahosi aniqlanadi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ko'plab kompaniyalar tannarxining namunaviy kalkulyasiyasini tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi bilan birlashtirib yuboradi.

Bunday holatlar mijozning texnologik talabiga muvofiq mahsulot yig'imini amalga oshiruvchi korxonalarda uchraydi. Shu bilan birga mahsulot yig'ish, ya'ni konstruksiyaning uzi bir qator komplektlovchi detallardan tashkil topadi, ya'ni komplektlovchi detallar partiyasi tayyorlanib hamma xarajatlar mahsus buyumlar partiyasining kalkulyasiya qaydnomasida hisobga olinadi.

Komplektlovchi buyumlar tayyorlanishi tugashi bilan buyurtma-naryad yopiladi va tayyorlangan mahsulot tayyor detallar omboriga jami buyum partiyasi urtacha tannarxda topshiriladi.

Mijozning ma'lum bir ishiga buyurtma-naryad tuziladi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi buyicha xarajatlarni tahlil

qilayotganda ushbu buyurtma partiyasi uchun zarur detallar hajmini tug'riligini aniqlash kerak. Uning uchun quyidagilar urganiladi:

- istemol miqdori;
- mahsulotlarni saqlash va foydalanishga tayyor qilish xarajatlari;
- ishlab chiqarish tizimini buzish va urnatish uchun zarur vaqt;
- ishchi kuchi, xizmat va stanoklarning boshqa mahsulotga nisbatan unumdorligi (POM).

Partiyaning optimal miqdorini dastlabki hisobini quyidagilar asosida amalga oshirish mumkin:

- bir birlik mahsulot eng past tannarxini aniqlash maqsadida partiyalarning har xil miqdori buyicha mahsulot birligi tannarxini kalkulyasiya qilish tahlili;
- ishlab chiqarilgan tovarlarni partiyalarini saqlash buyicha ularni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan tahlili;
- partiyaning optimal miqdorini hisobi (POM), quyidagi formula buyicha amalga oshiriladi

$$POM = 2 \frac{X_u T_y}{X_s}$$

bunda: T_y – yillik talab

X_u – buzish va urnatish sarfi

X_s - saqlash sarfi.

Tovarlar partiyasi tannarxining kalkulyasiyasida xarajatlarni tahlil

qilishning keyingi bosqichi bulib, har bir tovar partiyasining tannarxini urganish hisoblanadi. Bu alohida xarajat turlari: urnatish, stanoklarni ishga tushirish va zahiralarini harakati buyicha zahiralar darajasini saqlanishini rejalashtirish maqsadida amalga oshiriladi, shuningdek har bir tovar partiyasi rentabilligining darajasini saqlash uchun ham qo'llaniladi.

Shartnoma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili. Har bir shartnoma mahsulotning alohida birligini kalkulyasiya qilinishini anglatadi, shuning uchun har bir shartnoma buyicha xarajatlar buxgalteriya bosh kitobida alohida schyotda yig'iladi.

Shu tufayli xarajatlar quyidagi modda turlari buyicha yig'iladi.

1. Asosiy materiallar.
2. Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi.
3. Ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar.
4. Sub kontrakt (subshartnoma) buyicha sarflar.
5. Egri xarajatlar.

Kontraktga kiruvchi materiallar uz ichiga mahsus sotib olingan materiallarni olibgina qolmay, pudratchi omboridagi mahsulotni ham uz ichiga oladi.

Material xarajatlarini tahlil qilishda qurilish maydonchasidan omborga ortiqcha materiallarning kelib tushishi va qaytarilishini hisobga olish qiyinligini inobatga olish kerak. Mahsulotlar sarflanishi hisobi tug'riligini va urnatilgan sarf normasini batafsil sinchiklab tekshirish zarur.

Shartnomaga kiruvchi mehnat uchun sarflar, reja va xujjatlar tuzish

bilan bog'liq ofis ishini, bevosita zavoddagi ishlab chiqarish operasiyalarini va qurilish maydonchasidagi ishlarni uz ichiga oladi. Qurilish joyidagi barcha ishlarga shartnoma buyicha tug'ri mehnat sifatida qaraladi.

Har xil maydonchalardagi quruvchilarning ish vaqtlari mahsus ish vaqtining hisobi tabellarida olib boriladi. Bunday mehnat bilan bohliq barcha xarajatlar shartnoma hisobiga yoziladi.

Materiallar va mehnatdan tashqari shartnoma buyicha tug'ri xarajatlar ham mavjud. Ularga subshartnoma buyicha ishlar va ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlari uchun xarajatlar maxsus ushbu shartnoma uchun qilingan bulishi mumkin yoki ijarachi foydalanishi uchun berilgan bulishi mumkin.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar ushbu shartnoma uchun maxsus sotib olingan bulsa, unda sotib olingan jihozlarning tannarxi butunlay shartnoma hisobiga utadi.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar boshqa shartnomalarga berilsa, unda ularning hisobdan chiqarilgan qiymati dastlabki shartnomada qoladi, qolgan summa esa yangi shartnomaga utadi.

Ishlab chiqarish qurilmalari ma'lum bir shartnoma buyicha foydalanish uchun ijaraga olingan bulishi mumkin. Ushbu holatda kompaniya bu ishlab chiqarish qurilmalariga egalik qilaolmasligi uchun ijara summasi shartnoma hisobiga kuchiriladi.

Yirik shartnoma yoki ma'lum bir ish turi buyicha mutaxassis faoliyati

bilan bog'liq shartnoma bulsa korxona subpudratchilarni jalb qilishi mumkin. Subpudratchining hamma bajargan ishining tannarxi shartnomaning tug'ri xarajati sifatida qaralib shartnoma hisobiga olib boriladi.

Ko'plab pudratchilar uz xarajatlarini alohida shartnomalar buyicha taqsimlamaydilar, chunki ular odatda tug'ri xarajatlarga nisbatan muhim hisoblanmaydi. Lekin, alohida hollarda shartnoma buyicha egri xarajatlar alohida shartnomalar urtasida korxona uchun belgilangan usul buyicha taqsimlanishi mumkin.

Har bir shartnomaning qiymati ijrochi va mijoz urtasida kelishib olinadi va u shartnoma qiymati hisoblanadi. Agar shartnomalar yirik buladigan bulsa, pudratchi mijozdan bajargan ish hajmi va shartnoma qiymatiga mos ravishda oraliq tulovlarni olishi mumkin.

Ushbu hollarda shartnomaning bajarilgan ishi buyicha buyurtmachining eksperti xulosa beradi, unda shartnomaning jami qiymatidan bir qismi aniqlanadi va u ijrochiga bajargan ish hajmiga muvofiq ravishda tulanishi mumkin. Ijrochi uz navbatida buyurtmachiga oraliq tulov summasi uchun schet faktura beradi.

Shartnomaning bajarilish davrida ijrochi odatda ekspert xulosasida kursatilgan qiymatning bir qismini oladi. Buyurtmachi ishlab qoladigan qolgan summa ijrochiga shartnomani bajarilishi bilan va deffektlarni tuzatishi bilan (agar ular bulsa) tulab beradi.

Tannarxni jarayonli kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ishlab chiqarish xarajatlarning jarayonli kalkulyasiyasi bu sanoatda ommabop mahsulot ishlab chiqaruvchi, lekin jarayon doimo

takrorlanadigan operatsiyalarga bulingan, ya'ni uzoq vaqt davomida ommabop mahsulot bir nechta qayta ishlash bosqichidan utadigan ishlab chiqarishda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hisoblash metodi. Ularga ximik, neftni qayta ishlash, tekstil, lak-buyoq, tegirmon, rezina texnik metallurgiya, shisha, tog', sement sanoati korxonalari kiradi.

Jarayonli metod nosanoat sohasida ham qullaniladi, masalan, pochta xatlarini saralashda, uz-uziga xizmat qilish kafelarida va boshqalar.

Jarayonli metodda mahsulot bir jarayondan boshqa jarayonga tuliq tayyor bulmaguncha utaveradi. Tayyorlash jarayoni bilan birgalikda ishlab chiqarish xarajatlarini yig'ilishi jarayoni ham olib boriladi. Har bir texnologik jarayon uchun tug'ri va egri xarajatlar aniqlanishi zarur.

Xarajatlar xuddi kalkulyasiyaning namunaviy metodidagiday aniqlanadi. Hamma material xom ashyo mehnat haqqi uchun tug'ri xarajatlar, shunigdek, ishlab chiqarishning qushimcha xarajatlar hisobga olinadi. Namunaviy metodda egri hisoblangan xarajatlarni katta qismi jarayonli metodda tug'ri xarajat hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini nazorati uchun sarflar, jarayondagi uskunalar amortizasiyasi va boshqalar.

Jarayonli metodning namunaviydan farqi xarajatlar hisobi obyektining tanlanishidadir. Birlik mahsulotning tannarxini aniqlanishi ikkala metodda ham hisoblash yuli bilan aniqlanadi, ya'ni ishlab chiqarishni jami tannarxini ushbu davrda ishlab chiqarilgan mag'sulotlar soniga bulish yuli bilan asosiy farq maxrajning kattaligida. Namunaviy metodda u kichik (masalan, bitta qadaqlovchi mashina), jarayonli metodda esa katta (masalan, ming metr, birlik, kub, galon va h.k.).

Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlarni tahlil qila turib normativ xarajat va daromadni haqiqiy natija bilan solishtiriladi. Bu korxona faoliyati samaradorligini oshishi va ularning sabablarini aniqlash uchun ishlatiladigan aniqlash maqsudida amalga oshiriladi.

Xarajatlarni shakllanish asosini tanlanishiga bog'liq holda normativlar quyidagicha farqlanadi:

- asosiy normativ;
- ideal normativ (eng yuksak);
- erishiladigan normativ;
- joriy normativ.

Asosiy normativ – uzoq muddatda ishlatish uchun urnatilgan normativ bo'lib, bu asosida joriy normativlar ishlab chiqish mumkindir.

Ideal normativ – bu uskunalarni turib qolishini, yuqotishlar, oddiy zararlarni kompensasiyasiz qulay sharoitlarda erishish mumkin bulgan normativ. U yana potensial normativ ham deyiladi.

Erishiladigan normativ – bu shunday normativki , agar ishning normativ birligi samarali bajarilsa, uskuna va materiallar kerakli joyida ishlatilsa, unga erishish mumkin.

Joriy normativ – bu va qisqa vaqt davrida foydalanish uchun urnatilgan va joriy sharoitga aloqasi bulgan normativdir.

Xarajatlarning normativ kursatkichlaridan foydalanib normativ tannarx kartochkasi tuziladi va mahsulot borligining normativ tannarxi

haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Xarajatlarni tahlil qilishda mahsulot tannarxining normativ kursatkichlari haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish uchun asos bulib hisoblanadi va ular yordamida yo'l qo'yilgan farqlari va ularning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

Haqiqiy xarajatlar farqi ularning turlari, mahsulot birligi va xarajatlar umumiy summasining chetlanishini aniqlanishi buyicha hisobga olib boriladi.

Tannarxning normativ kalkulyasiyasi buyicha xarajatlar tahlili quyidagi kursatkichlar asosida amalga oshiriladi: norma-soat, ishlab chiqarish hajmi koeffitsiyenti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, ishlab chiqarish quvvati samaradorligi (unumdorligi) koeffitsiyenti.

Norma-soat – bu normativ unumdorligi bilan bir soatda bajarilishi kerak bulgan ish hajmi, masalan, bir soatda mahsulot ishlab chiqarish 20 ta mahsulotni tashkil qilsa, unda 100 dona mahsulotni ishlab chiqarish normativi buyicha 5 soat bulishi kerak va ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy vaqtdan qat'iy nazar shu 5 soatning normativ qiymati buyicha baholanadi.

Ishlab chiqarish hajmi koeffitsiyenti ($K_i/\text{ch.h}$) ishlab chiqarishni haqiqiy hajmini (norma-soatda urgangan) rejada kursatilganligi nisbati orqali aniqlanadi va foizlarda ifodalaniladi:

$$I/\text{Ch.H}_{\text{xaq}} \cdot 100$$

$$K_{i/ch.h} = \frac{I/Ch.H_{reja}}{I/Ch.H_{xaq}}$$

Bu yerda: I/Ch.H xaq - mahsulot ishlab chiqarishga haqiqatda sarflangan vaqt;

I/Ch.H reja-vaqt sarfining rejaviy hajmi.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti ($K_{i/ch.quv.foy}$) rejada kursatilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini xarakterlaydi. U haqiqatda ishlangan vaqtni (norma-soatda) rejadagiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$K_{i/ch.quv.foy} = \frac{I_{sh} \cdot Vaqt.xaq \cdot 100}{I/Ch.H_{reja}}$$

Bunda: I_{sh} Vaqt xaq – Ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqti (norma-soatda).

Haqiqatdagi ish vaqtdan foydalanish samaradorligi koeffitsiyenti (K_{xaq} ishlat ish vaq) haqiqatda ishlangan vaqtni ($I/Ch.H_{xaq}$) ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqtiga nisbati (I_{sh} Vaqt xaq) formulasi bilan aniqlanadi:

$$K_{xaq.ishlat.ish\ vaqt} = \frac{I/Ch.H_{xaq} \cdot 100}{I_{sh} \cdot Vaqt\ xaq}$$

Mahsulot tannarxini normativ kalkulyasiyasi qullaniladigan ishlab

chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda frqlashlar usulidan foydalanish kerak.

Normativ xarajatlardan farqi kuzda tutilgan normativ xarajatlar asosida orasidagi farq. Bu metoddan foydalanib foydalanilgan materiallar miqdori (fizik hajmi) va material xarajatlar summasiga narxning uzgarishi ta'sirini aniqlash lozim.

Narxning uzgarishini material xarajatlar summasiga ta'sirini aniqlash fizik va normativ narxlar orasidagi haqiqatda sarflangan materiallar miqdoriga kupaytirish kerak:

$$D\text{ }MX_n = (N_x - N_{nor}) \cdot SMM_x$$

Bunda: DMX_n – material xarajatlari summasini material narxning uzgarishi hisobiga chetlanishi;

N_x – sarflangan materiallarning haqiqiy, narxi;

N_{nor} – sarflangan materiallarning normativ narxi;

SMM_x – haqiqatda sarflangan materiallar miqdori.

Xarajatlar summasiga sarflangan materiallar miqdorini uzgarishi hisobiga chetlanishlar ta'sirini aniqlash uchun material xarajatning haqiqiy miqdori va normativ buyicha material xarajatlar, miqdori orasidagi farqni materiallarning normativ qiymatiga kupaytirish kerak:

$$D\text{ }MX_{miq} = (SMM_x - SMM_n) \cdot MN_{nor}$$

Bunda: DMX_{miq} – material xarajatlari summasini sarflangan materaillar miqdorini uzgarish hisobiga chetlanishi;

SMM_x – haqiqatda sarflangan materaillar miqdori;

SMM_n – normativ buyicha sarflangan materaillar miqdori;

MN_{nor} – sarflangan materaillarning normativ qiymati.

Mehnat haqi xarajatlari mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat miqdorini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shunga bog'liq holda tahlil mobaynida ikkita omil ta'sirini hisobga olish zarur:

- mehnat haqi urtacha stavkasining uzgarishi;
- ishlangan vaqtning chetlanishi.

Mehnat haqi stavkasining urtacha uzgarishi ta'sirini aniqlash uchun mehnat haqining haqiqatdagi normativ stavkalar urtasidagi farqni haqiqatda ishlangan vaqtga (agar soatbay mehnat haqi bulsa) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soniga (agar mehnatga ishbay asosida haq tulash) kupaytiriladi. Uning formulasi:

$$DMHCh_{m.h.u.} = (MH_{ur.haq} - MH_{ur.nor}) \cdot Vaqt_{ishlan_{haq}}.$$

Bunda – $DMHCh_{m.h.u.}$ – mehnat haqi buyicha urtacha stavkaning uzgarishi natijasida mehnat haqini chetlanishi;

$MH_{ur.haq}$ - mehnat haqi buyicha urtacha haqiqiy stavkasi;

$MH_{ur.nor}$ – mehnat haqining urtacha normativ stavkasi;

$Vaqt_{ishlan_{haq}}$ - haqiqatda ishlangan vaqt (norma-soatda) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soni.

Mehnat unumdorligining ta'siri, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlangan vaqtni uzgarishi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ketgan haqiqiy (soatda) vaqt va normativ (soatda) vaqt orasidagi farqni ish haqini normativ soatboy stavkasiga (urtacha) kupaytiriladi:

$$DIX_{i.vagt} = (Vaqt_{aishlan_{haq}} - Vaqt_{ishlan_{nor}}) \cdot Ish.haq_{nor.ur}.$$

Bunda: $IX_{i,vaqt}$ – ishlangan vaqtni uzgarishi natijasida xarajatlarni chetlanishi;

$Vaqt.ishlan_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan haqiqatda ishlangan vaqt (soatda);

$Vaqt.ishlan_{nor}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan normativ vaqt (soatda);

$Ish.haq_{nor,ur}$ ish haqining normativ soatboy stavkasi.

Keyinchalik haqiqiy xarajatlarni normativdan (rejadan) chetlanish sabablarini aniqlash zarur. Chetlanishlar hisobi – bu faqatgina birinchi qadam.

Rahbariyatga rejalashtirish buyicha qaror qabul qilish va xarajatlar samaradorligini nazoratini amalga oshirish uchun ahborot lozim. Chetlanish mavjudligini bilish kamlik qiladi, uning sabablarini aniqlash zarur.

Sabablari quyidagilar bulish mumkin:

- yomon moliyaviy rejalashtirish;
- yomon ulchash yoki notug'ri hisob;
- tasodifiy omillar;

Materiallar qiymati buyicha chetlanish quyidagilar natijasida bulishi mumkin:

- har xil ta'minot manbai;
- narxning umumiy oshishi;
- har xil nav materiallarni almashtirish;
- katta partiyadagi tovar sotishdagi chegirmalarning uzgarishi.

- mahsulotlardan foydalanish buyicha chetlanishlar quyidagilar natijasida bulishi mumkin;

- mahsulot dizaynining uzgarishi yuqori yoki kam materiallar sarfi;
- har xil sortli materiallarning almashtirilishi;
- mehnat haqi buyicha chetlanishlar quyidagilar hisobiga buladi;
- mamlakat miqyosida xukumatning ishchi va xizmatchilarga mehnat haqini oshirish buyicha qarori;
- rejada nazarda tutilmagan ish vaqtidan tashqari bajarilgan ishga va mukofat tulovlari;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Mehnat unumdorligi buyicha chetlanishlar quyidagilar natijasida sodir buladi:

- ish sharoitlarini takomillashtirilishi;
- o'qitish effektining natijalari;
- moddiy rag'batlantirish tizimi joriy qilinishi yoki xodimlarni uqitish;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Tahlil qilayotganda bu chetlanishlarni maqsadga muvofiqligini urganib chiqish lozim. Ularning sabablarini aniqlash zarur, korxonaning moliyaviy natijasi va jami xarajat summasiga ularning ta'sirini aniqlash kerak maqsadga muvofiq.

2-Bob. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tahlili

2.1.Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibiy tahlili

Mamlakatimiz ishlab chikaruvchilari raqobatbardoshligini oshirish, mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda sotish hajmini kengaytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrda PF-4058-sn farmoni bilan tasdiqlangan Iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqlari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturiga va Vazirlar maxkamasining 26-sonli Karoriga muvofiq yirik sanoat korxonalari, xo'jalik birlashmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda tanqidiy tahlil asosida texnologiya jarayonlarini xamda xom ashyo, materiallar va energiya resurslari sarfi normalarini maqbullashtirish, quvvatlardan foydalanish darajasini kupaytirish va Mehnat unumdorligini oshirish, foydalanish va qo'shimcha sarf xarajatlarni qisqartirish, xarid kilinadigan xom ashyo materiallar va butlovchi buyumlar qiymatini pasaytirish, xodimlar xisobini maqbullashtirish xisobiga sanoat mahsulotlari tannarxini kamaytirishga yo'naltirilgan kompleks chora tadbirlar ishlab chikildi xamda xo'jalik birlashmalari va yirik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tannarxini qisqartirishning yig'ma parametrlari tasdiqlandi. Mazkur tasdiqlangan yig'ma parametrlarga muvofiq ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish darajasi respublika bo'yicha o'rtacha 20,6% kilib belgilandi.

Quyida «URG-ANTEP-YASHAM» qo'shma korxonasi tomonidan sotilgan mahsulot tannarxining 2011-2012 yillar davomida o'zgarish tendensiyasini ko'rib chiqamiz.

2.1.1.-jadval

**«URG-ANTEP-YASHAM» qo'shma korxonasi tomonidan 2011-2012 yillarda
sotilgan mahsulot tannarxining tarkibiy tahlili
(ming so'mda)**

№	Xarajat elementlari	2011 yil		2012 yil	
		Xarajat	% da	Xarajat	% da
1	Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	5419302,57	69	4247754,84	70
2	Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga xak to'lash xarajatlari	1256649,87	16	940574,286	15,5
3	Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	282746,221	3,6	212387,742	3,5
4	Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	785406,17	10	546139,908	9
5	Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlari	109956,864	1,4	121364,424	2
JAMI		7854061,7	100	6068221,2	100

Manba: «URG-ANTEP-YASHAM» qo'shma korxonasining 2011-2012 yillar uchun tuzilgan statistik xisoboti ma'lumotlari


2.1.1-jadvalda «URG-ANTEP-YASHAM» qo'shma korxonasi tomonidan sotilgan mahsulot tannarxining 2011-2012 yillar davomida o'zgarish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Qo'shma korxonada yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish va Sotish xajmi kamayib borgan, ya'ni bu 2011 yilda 7854061,7 ming so'm bo'lsa, 2012 yilga kelib bu mikdor 6068221,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 77,3 % ga kamaygan. Shunga mos ravishda ishlab chiqarishda sarflangan moddiy xarajatlari 2011 yilda 5419302,57 ming so'm bo'lsa, bu mikdor 2012 yilga kelib 4247754,84 ming so'mga aylangan. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan

mehnatga xak to'lash xarajatlari 2011 yilda 1256649,87 ming so'm bo'lsa, bu mikdor 2012 yilga kelib 940574,286 ming so'mga aylangan. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari 2011 yilda 282746,221 ming so'm bo'lsa, bu mikdor 2012 yilga kelib 212387,742 ming so'mga aylangan. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar 2011 yilda 785406,17 ming so'm bo'lsa, bu mikdor 2012 yilga kelib 546139,908 ming so'mga aylangan. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar 2011 yilda 109956,864ming so'm bo'lsa, bu mikdor 2012 yilga kelib 121364,424 ming so'mga aylangan. Bundan ko'rinadiki qo'shma korxonada mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot xajmi kamayishi xisobiga kamaygan. Umuman olganda bu ko'rsatkichlarning xar biri shu yillar davomida kamayish tendensiyasiga ega. Faqatgina amartizasiya xarajatlari to'g'ri chizikli usulda xisobga olib borilganligi uchun uncha katta o'zgarish bo'lmagan. Bunda 2012 yil asosiy vositalarni kayta baholash xamda yangi ishlab chiqarish uchun asosiy vositalar olinganligi xisobiga shu yilda unga nisbatan xisoblangan amartizasiya summasi xam oshishi kuzatilgan. Mahsulot ishlab chiqarish xajmi ma'lumotlardan ko'rinadiki 2011 yilda oldingi yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish xamda Sotish xajmi ko'proq oshgan bo'lsa, 2012 yilda o'tgan yilga nisbatan mahsulot Sotish xajmi pasayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, shuni aytish mumkinki "URG-ANTEP-YASHAM" qo'shma korxonasida 2011 yilda mahsulot ishlab chiqarish xamda Sotish belgilangan tartibda olib borilib, mahsulot Sotish xajmini oshirishga erishilgan. Buni ijobiy baholashimiz mumkin. Chunki, mahsulot ishlab chiqarish va Sotish xajmining oshishi, mahsulot tannarxini oshirish xisobiga emas balki, mahsulot tannarxini kamaytirib, uning sonini oshirishga erishilgan. Buning natijasida korxonada ushbu davrda korxona faoliyati samaradorligi oshgan, mehnat unumdorligi oshgan va asosiy vositalar yanada yangilangan. Korxonaning bunda faoliyatini ijobiy faoliyat yuritilayotgan deb baho berishimiz mumkin.


2.1.1-diagramma

Sotilgan mahsulot tannarxining xarajat elementlari ulushlari bo'yicha o'zgarishi tendensiyasi (foizda)

2011 yil



2012 yil



Manba: “URG-ANTEP-YASHAM” qo’shma korxonasining 2011-2012 yillar uchun tuzilgan statistik xisoboti ma’lumotlari

2.1.1- diagrammada «URG-ANTEP-YASHAM» qo’shma korxonasida 2011-2012 yillarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlarning

ulushlari tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Bunga ko'ra mahsulot tannarxidagi moddiy xarajatlarning ulushi 2012 yilda 2011 yilga nisbatan ko'payib borgan, ya'ni 2011 yilda 69 foizdan 2012 yilgacha 70 foizga oshgan. Mehnatga xak to'lash xarajatlari ulushi esa ushbu yillar oraligida o'zgarib borgan, ya'ni 2011 yilda 16 % ni tashkil etsa, 2012 yilda 15,5 % ga kamaygan, ya'ni 0,5 % ga kamaygan. Bundan biz ushbu korxonada Mehnat unumdorligi oshgan deb xulosaga kelishimiz mumkin. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarning mahsulot tannarxidagi ulushi ushbu davlar oralig'ida 0,1 % ga kamayishi kuzatilgan. Amartizasiya xarajatlarining mahsulot tannarxidagi ulushi ham 1,0 % ga kamayishi kuzatilgan. Bu esa korxonada asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarda samarali foydalanilayotganligini xamda ularning rentabelligi yuqori ekanligini bildiradi. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajalar mahsulot tannarxidagi ulushi esa 2011 yilda 1,4 % bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 2,0 % ni tashkil etib, 0,6 % ga kamaygan. Bu natijani salbiy deb bulmaydi. Umuman aytganda korxonada ishlab chiqarish samaradorligi oxirgi yillarda ancha oshgan, korxona barcha aktivlari rentabelligini oshirishga erishgan. Ya'ni 2012 yilda mahsulot tannarxi va uning tarkibi o'tgan yilga nisbatan kamaygan bo'lsada, biroq uning sof foydasi o'tgan yilga nisbatan (2011yilda- 42379,3 ming so'm; 2012 yilda - 46422,9 ming so'm) 109,5% ga oshgan bo'lib, ijobiy rentabellikka erishgan. Bu ayni paytda iqtisodiyotni modernizasiyalash va diversifikasiyalash sharoitida o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

2.1.1-chizama

Mahsulot ishlab chiqarish va Sotish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar²

Ta'sir etuvchi omillar	
Birinchi gurux xarajatlari	Ikkinchi gurux xarajatlari
1. Mahsulot ulchami, mikdori	1. Resurslar qiymati
2. Mahsulot sifati	2. Ishlab chiqarish xajmi
3. Mahsulot ishlab chiqarish murakkabligi	3. Samaradorlik
	4. Texnologiya
	5. Joylashgan joyi
	6. Sotish xarajatlari
	7. Boshqa omillar

Birinchi gurux omillari.

Mahsulot ulchami, mikdori - bir birlik ishlab chikariladigan mahsulot mikdori qancha katta bo'lsa, unga ketadigan xarajatlar xam shuncha kup bo'ladi.

Mahsulot sifati - mahsulot sifatini qancha yaxshilab borgan sari, unga sarflanadigan xarajatlar xam shunga nisbatan oshadi va aksincha sifati past mahsulotga xarajatlar xam kam sarflanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish murakkabligi - maxsulot ishlab chiqarish qancha

² www.cfin.ru маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

murakkab bo'lsa, unga shuncha mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ko'p bo'ladi va mahsulot tannarxini oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish qancha oson bo'lsa, mos ravishda ishlab chiqarish tannarxi ham pastroq bo'ladi.

Ikkinchi guruh omillari.

Resurslar qiymati - resurslar qiymati ya'ni bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan moddiy xarajatlarni qancha kimmat bo'lsa, mos ravishda mahsulot tannarxi ham oshadi. Va aksincha resurslar qiymati qancha arzon bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shuncha past bo'ladi.

Ishlab chiqarish hajmi - qancha kup mahsulot ishlab chiqariladigan bo'lsa, bir birlik mahsulot tannarxi shuncha past bo'ladi va aksincha qancha kam mahsulot ishlab chiqarilsa, mahsulot tannarxi oshadi.

Samaradorlik - korxona qancha samaradorlikka erishsa, bunda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ham shuncha past bo'ladi va aksincha samaradorlik past joyda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shuncha yuqori bo'ladi.

Texnologiya - korxona faoliyatida texnologiyalar qanchalik zamonaviy, yangi bo'lsa, mahsulot unumdorligiga erishilib, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shuncha kamayadi. Texnologiya, asbob-uskunalar yaxshi bulmagan ishlab chiqarish jarayonida, samaradorlik past bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi oshadi.

Joylashgan joyi - korxonaga moddiy va mehnat resurslari sotib olish bozori xamda ishlab chikargan mahsulotini Sotish bozori qancha yakin bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari transport xarajatlari evaziga kamayib, mahsulot tannarxi shuncha kamayib, sotish bahosi ham shuncha arzon bo'ladi. Korxona bunday bozorlardan qanchalik uzoq bo'lsa, mahsulot tannarxi shuncha oshadi.

Sotish xarajatlari - sotish xarajatlari mahsulot sotish bilan bog'liq barcha xarajatlarni bo'lib, bu xarajatlarni qancha kup bo'lsa, bu mahsulot sotish bahosini oshirishga sabab bo'ladi.

Mahsulot tannarxi korxona moliya xo'jalik faoliyatini xamma tomonlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardir. Shu tufayli ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri xisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish xamda tahlil qilish muxim ahamiyat

kasb etadi. Bunda korxonada ishlab chikriladigan mahsulotning bir so'mlik qiymatiga qancha xarajat to'g'ri kelishini aniqlash muximdir.

Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muximi bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajaddir. Bu ko'rsatkich tiyin xisobida quyidagicha aniklanadi:

$$\text{Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat (tiyin)} = \frac{\text{Ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Tovar mahsulotini ulgurji bahosi.}}$$

Bu ko'rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi o'zgarishi aniklanadi.

2.1.2-jadval

“URG-ANTEP-YASHAM” qo'shma korxonasida 2011-2012 yillarda bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil
1	2	3
1. Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'mda	7854061,7	6068221,2
2. Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi, ming so'mda	9429824,8	7155055,1
3. Mahsulot sotishdan olingan sof foyda, ming so'mda	42379,3	46422,9
4. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin xisobida	83,3	84,8


Manba: “URG-ANTEP-YASHAM” qo'shma korxonasining 2011-2012 yillar uchun tuzilgan moliyaviy xisoboti ma'lumotlari

2.1.2- jadval ma'lumotlaridan “**URG-ANTEP-YASHAM**” qo'shma korxonasining 2011-2012 yillarda bir so'mlik mahsuloti uchun qancha xarajat qilinganini ko'rishimiz mumkin. Bunga ko'ra korxonada 2012 yilda 2011 yilga nisbatan mahsulot sotishdan foyda oshgan, lekin shu yillarda ishlab chiqilgan mahsulotlarning bir so'mlik qismiga sarflangan xarajatlar sezilarli darajada oshgan. Ya'ni bu mikdor 2011 yilda 83,3 tiyin bo'lsa, 2012 yilda esa 84,8 tiyinga oshgan. Bu mikdorning oshishiga asosiy sabab korxonada 2012 yilda mahsulot tannarxini ortishi emas balki, mahsulot sotish bahosining pasayishi xisobiga amalga oshgan. Umuman olganda korxonaning yil oxirida foyda bilan chiqqanligini hisobga olsak, bu xolatni salbiy baholab bo'lmaydi.

Ma'lumki, korxona erishadigan foyda mikdorining oshishi xarajatlarning qisqarishi va sotish xajmini oshishi bilan bevosita bog'liqdir. Ularni o'zaro quyidagicha taqqoslash mumkin.

2.1.2-chizma

Foyda va xarajat o'rtasidagi bog'liqlik



Demak bir xil mikdordagi foydaga sotish (ishlab chiqarish) xajmini 33 foizga oshirib ham yoki xarajatlarni 5,9 foizga kamaytirish xisobiga xam erishish mumkin ekan.

Sotish xajmini oshirish uchun ishlab chiqarishni qo'shimcha moliyalashtirish

lozim bo'ladi. Bu esa bevosita qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq (masalan, bank kreditlaridan foydalanish). Qo'shimcha miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish chegaralangan talab sharoitida qiyinchiliklarni yuzaga chikaradi, xamda realizasiyada qo'shimcha chikimlarni olib keladi.

Mahsulot birligini chiqarishda xarajatlarni qisqartirish raqobat oldiga muxim ustunlik - pastroq narx ko'llash imkoniyatini beradi.

2.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi shakllanishining korxona foydasiga ta'sirining tahlili.

Sanoat korxonalarda moliyaviy menejerlar xarajatlarni, jumladan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini Boshqarishda quyidagilarga amal kilish muxim ahamiyat kasb etadi:

- korxona moliyaviy resurslarining kayerga, kachon va qancha miqdorda xarajat kilishni ***bilish***;
- kayerga, nima uchun va qancha miqdorda kerakli qo'shimcha moliyaviy resurslar miqdorini ***prognoz silish***;
- moliyaviy resurslarning yukori darajali samaradorligi ta'minlashni ***bilish***.

Moliyaviy menejerlarning asosiy maqsadi korxonaning samaradorligini oshirish xamda korxona foydasini maksimallashtirish bo'yicha turli chora tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Shuning uchun moliyaviy menejerlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri yo'naltirish maqsadida korxona moliyaviy resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish va ular samaradorligini maksimallashtirishni bilishi lozim yuuladi.

Buning natijasida korxonalar quyidagi afzalliklarga erishadi:

- Kam xarajat kilinadi va bu bilan mahsulot narxi pasaytirib raqobat bardosh mahsulot ishlab chiqarishini ta'minlaydi;
- Aloxida kurinishdagi mahsulotlar tannarxi va ularning bozordagi Boshqa ishlab chikaruvchilar mahsulotlari bilan kiyosiy holati bo'yicha anik va sifatli ma'lumotlarning mavjudligi;
- Tannarx pasayganligi xisobiga bozorda egiluvchan baho shakllanishidan

foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- Korxona byudjeti to'zilishi uchun obyektiv ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- Asoslangan va samarali Boshqaruv karorlarini kabul qilish..

Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil kilib berish juda muxim xisoblanmokda. Chunki ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va yuksalishi xarajatlarni kiskartirib borish, unga ta'sir etuvchi omillari tahlil qilish, aniqlash kabi xususiyatlarga ega xisoblanadi. Bu soxada dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari o'zlarining tarakkiyot darajasiga erishgandir. Ma'lumki, sobiq totalitar tuzum davrida barcha ishlab chiqarish markazlashgan, rejalashtirilgan tartibda edi. Shuning uchun xam isrofgarchilik juda kup mikdorda edi. Ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishi mahsulot sifatining bo'zilishiga, shuningdek uning "Utmay" kolishiga sabab buldi. Natijada usha davrda mamlakat ishlab chiqarishi inkirozga uchradi. Bu mamlakat uchun fojiali xol edi. Chunki egasiz mulkning kadri bulmaydi, tekin narsani esa samarasi bulmaydi. Bu barchamizga ma'lumdir.

Shuning uchun xam mustakillikka erishganimizdan keyin, Prezidentimizning okilona fikrlari, ularning tashabbuslari bilan eng asosiy e'tibor shu soxaga karatildi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini quyidagicha omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mehnat unumdorligini oshib borishi.
2. Mehnatni ilmiy tashkil qilish.
3. Ishchi kuchlarini to'g'ri joylashtirish va ishlab chiqarishga tukri jalb etish.
4. Fan-texnika tarakkiyotini yuksaltirib borish, tadbik qilish.
5. Kadrlar malakasini oshirib borish.
6. Xom-ashyo resurslaridan samarali va unumli foydalanish.
7. Ishlab chiqarishni Boshqarishni to'g'ri tashkil etish.

Umuman olganda esa bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani kullash Mehnat unumdorligini oshirib borish, xom ashyo sarflarini kiskartirib borish. X,ar qanday jamiyatning muxim buginlaridan asosiysi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borishdir. X,ar bir faoliyat kursatayotgan korxona

xam o'z oldiga ana shuni vazifa kilib kuyadi, ya'ni korxonaning asosiy maqsadi, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirib maksimal foyda olishdir, ko'prok mahsulot ishlab chiqarishga karatilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yukorida sanab utilgan muxim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda kiyin. Masalan: xom ashyo zaxiralarining eng arzon kanallarini kidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muxofazashni kuchaytirish, fan-texnika tarakkiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbik kilish, umuman bularni birvarakayiga amalga oshirish murakkab jarayondir. Lekin, shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iktisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti xisoblanadi.

Respublikamizda bunday ishlarni rivojlantirish maqsadida ilgari davlat markazlashgan korxonalar tizimi o'zgartirilib, xususiylashtirish ishlari yo'lga kuyiladi. Bugungi kunda umumiy ishlab chiqarishning 84% asosan xususiy va kushma korxonalarga to'g'ri kelmokda. Bu degan so'z xar bir korxona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga va xarajatlarni kamaytirib borish omillariga jiddiy ta'sir kilmokda degenidir.

Albatta bunday munosabatlar ishlab chiqarishni pasayishini oldini olish ishsizlikka yul kuymaslikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirib borish esa unga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday kilib, ishlab chiqarish xarajatlariga asosan fan-texnika yutuklari, yukori ishchi kuchi, xom-ashyo resurslari asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnatni ilmiy tashkil kilgan xolda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish xam muximdir. Xar bir ishchi o'zining kasbini kilayotgan ishini sevishi kerak. Bu esa kadrular malakasizligiga barxam beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy tadkikotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga kuchib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40% foizgacha kamayar ekan. Bu degan so'z ishlab chiqarishning asosiy qismi yukoldi degandir. Shu sababli eng asosiy e'tibor ishchi urinlarini to'g'ri tashkil etishga karatilishi zarur.

Respublikamizda faoliyat kursatayotgan kuplab korxonalar ishlab chiqarish

xarajatlariga ta'sir kiluvchi omillarini xar tomonlama urganib, shu asosda ish yuritmokdalar.

Yangi bozor tizimi isloxotlarni amal kilishi iqtisodiyotida juda muxim sanalmokda va ahamiyati ortib bormokda. X,ar bir korxona o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil kilishni ustivor vazifa kilib kuyish kerak, Ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish tarakkiy etdi.

Doimiy va o'zgarmas xarajatlarini kuyida to'g'ri va egi xarajatlarga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

2.2.1-chizma

Ishlab chiqarish xarajatlar tasniflanishi³

		Doimiy xarajatlar	O'zgaruvchan xarajatlar
		i	i
To'g'ri xarajatlar	=>	-Amartizasiya (ishlab chiqarishda) -Ish xaqi (asosiy ishlab chiqarishda)- vaktbay	-Xom ashyo va materiallar -Savdo agentlariga komissionlar - Transport xarajatlari -Elektr energiya (kuchli tok) -Ish xaqi (asosiy ishlab chiqarishda) -ishbay
Egri xarajatlar	=>	-Amartizasiya (Mahsulot urashda) -Ish xaqi (Boshqaruv buginlarida, savdo agentlari)	- Yordamchi ishlab chiqarish stanoklari uchun elektr energiya.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga bog'liq emas. Quyidagi chizmada doimiy xarajatlar va ishlab chiqarish xajmi orasidagi bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin.


³ Муаллиф томонидан тайёрланди.



Ishlab chiqarish xajmi . Masalan: ma'muriy va Boshqaruv xarajatlari; amortizatsiya ajratmalari; ijara to'lovlari; mol-mulk soligi va Boshqa xarajatlar. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga

2.2.3.-chizma


bog'liqdir. Quyidagi chizmada o'zgaruvchan xarajatlar va ishlab chiqarish xajmi orasidagi bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin.



Ishlab chiqarish xajmi O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga proporsional xisoblanadi. Ya'ni mahsulot qancha ishlab chikarsa, o'zgaruvchan xarajatlar shunga mos ravishda oshadi va aksincha, ishlab chiqarish xajmi kamaysa, o'zgaruvchan xarajatlar xam shunga mos ravishda kamayadi.

Bundan tashqari shartli o'zgarmas xarajatlar xam mavjud. Bunday xarajatlar ishlab chiqarish xajmining ma'lum bir mikdorigacha o'zgarmay, keyin bosqich ma bosqich o'zgarib boradi. Quyidagi chizmada shartli o'zgarmas xarajatlari va ishlab chiqarish xajmi urtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin.

2.2.4.-chizma



Ishlab chiqarish xajmi Shartli o'zgarmas xarajatlari.

Korxona ishlab chikargan mahsulotlari 100 kv m. xonani tayyor mahsulotlarini saklash uchun ijaraga olgan. Ma'lum bir muddatdan so'ng mahsulot ishlab chiqarish xajmi oshgandan so'ng yana bir xona ijaraga olish kerak bo'lib koldi. Shu kabi ketma ket yuzaga keladigan ijara xaki xarajatlari shartli o'zgarmas xarajatlariga misol bo'la oladi.

1.2.1.-jadval

«URG-ANTEP-YASHAM» qo'shma korxonasi tomonidan

2011-2012 yillarda moliya xo'jalik faoliyati xarajatlari

tahlili

№	Xarajat elementlari	2011 yil		2012 yil	
		Xarajat (ming so'mda)	% da	Xarajat (ming so'mda)	% da
1	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	7854061,7	85,8	6068221,2	83,7
2	Davr xarajatlari jami, sh.j.:	644369,8	7,0	918905,6	12,7
2.1.	Sotish xarajatlari	201615,3	2,2	259914,5	3,6
2.2.	Ma'muriy xarajatlar	138327,8	1,5	173336,6	2,4
2.3.	Boshqa operasion xarajatlar	304426,7	3,3	485654,5	6,7
3	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar jami, sh.j.:	652654,7	7,1	259274,6	3,6
3.1.	Valyuta kurslaridan ko'rilgan zararlar	422209,1	4,6	235992,1	3,3

JAMI	9151086,2	100	7 246 401,4	100
-------------	------------------	------------	--------------------	------------

Manba: “URG-ANTEP-YASHAM” qo’shma korxonasining 2011-2012 yillar uchun tuzilgan moliyaviy xisoboti ma’lumotlari


2.2.1 - jadval ma’lumotlarida «URG-ANTEP-YASHAM» qo’shma korxonasi da 2011-2012 yillarda moliya-xo’jalik faoliyati xarajatlarining holati ni ko’rishimiz mumkin. Bu ma’lumotlarga ko’ra korxonada mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari va ularning tarkibi xamda moliyaviy faoliyat bilan bog’liq xarajatlar keltirilgan. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 2011 yilda jami xarajatlar tarkibidagi ulushi 85,8 % bo’lsa, bu ko’rsatkich 2012 yilga kelib 83,7 % ga kamaygan. Buni ijobiy o’zgargan natija deb atasak bo’ladi. Chunki 2012 yilga kelib ishlab chiqarishga bog’liq bo’lgan xarajatlarning tejamkorligiga erishilgan.

Lekin, 2011 yilda davr xarajatlarining jami xarajatlardagi salmogi 7,0 % bo’lgan bo’lsa, 2012 yilda esa bu ko’rsatkich 12,7 % ga oshgan. Ya’ni bunda korxona 2012 yilga kelib mahsulot sotish bo’yicha va korxona boshqaruvidagi ma’muriy xarajatlari to’g’ri tartibga solinmay, ko’proq xarajat kilishga erishilgan. Bu esa o’z navbatida korxona umumiy xarajatlari samaradorligiga bir muncha salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ya’ni sotish xarajatlari 2011 yilda jami xarajatlardagi ulushi 2,2 % bo’lsa, 2012 yilda bu ko’rsatkich 3,6 % bo’lgan, ma’muriy xarajatlar esa 2011 yilda jami xarajatlardagi ulushi 1,5 % bo’lgan bo’lsa 2012 yilga kelib bu ko’rsatkich 2,4 % bo’lgan. Boshqa operasion xarajatlar 2011 yilga nisbatan 2012 yilda jami xarajatlardagi ulushi 6,7 % kupaygan. Moliyaviy faoliyat bo’yicha korxonada faqatgina valyuta farqlari bo’yicha zararlar ijobiy ko’rsatkichga ega bo’lib, bu zararni koplashga qilingan xarajatlar 2011 yilda jami xarajatlardagi ulushi 7,1% bo’lgan bo’lsa, 2012 yilga kelib bu ko’rsatkich qariyb ikki barobar 3,6 % ga kamaygan. Korxonada valyuta bo’yicha zararlar 20012 yilda o’tgan yilga nisbatan kamrok bo’lishiga erishilgan. Umuman olganda korxonada jami xarajatlar 2011 yilda 9151086,2 ming so’m bo’lgan bo’lsa, 2012 yilga kelib 7 246 401,4 ming so’mga kamaygan, ya’ni umumiy jixatdan mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo’yicha qilingan xarajatlar kamayish tendensiyasiga erishilgan.


2.2.1. - diagramma

“URG-ANTEP-YASHAM” qo’shma korxonasi tomonidan 2011-2012 yillarda moliya -xo’jalik faoliyati xarajatlari o’zgarish diagrammasi

2011 yil



2012 yil



Manba: “ URG-ANTEP-YASHAM ” qo’shma korxonasining 2011-2012 yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisoboti ma’lumotlari

2.2.1- diagrammada “URG-ANTEP-YASHAM” qo’shma korxonasi tomonidan 2011-2012 yillarda moliya-xo’jalik faoliyati xarajatlari o’zgarish tendensiyasi ko’rsatilgan. Korxonada sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi o’zgarish tendensiyasida sezilarli darajada oshganligini ko’rishimiz mumkin. Korxona umumiy foydasiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ta’sir etganidek boshqa xarajatlar xam birdek ta’sir ko’rsatadi. Korxonada davr xarajatlari mahsuloti ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan ancha yuqoriligi korxona xarajatlariga birmuncha salbiy ko’rsatsada, moliyaviy faoliyat bo’yicha xarajatlar ancha tejamkorligiga erishilganligini, xamda mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan sof foydaning o’sishi korxona samaradorligiga erishishganligidan dalolat beradi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxona rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarning o’zida hisob qilinadigan ko’rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko’rsatkichlaridan biri bo’lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo’lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar

bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barqaror bo'lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat sohasida o'tkazilayotgan tub iqtisodiy tadbirlar majmuida foydani taqsimlash masalalari muhim o'rin tutadi, zero uni, adolat yuzasidan va to'g'ri taqsimlash jamoa va har bir xodimning manfaatdorligini uyg'unlashtirish uchun sharoit yaratadi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI PASAYTIRISH YO'LLARI

3.1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

Mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo va material, yoqilg'i va elektroenergetika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko'rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o'stirish yoki tashkil etishning ilg'or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko'paytirish kerak bo'ladi. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o'sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o'sish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, Lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog'liq bo'lgan sarflarni qisqartirish kerak bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalardagi ma'muriy boshqaruv apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to'lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirishning, ishlab chiqarishni rasional joylashtirish, ishlab chiqarish va

mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishning ta'minlovchi omillari bo'lib hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizasiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, ximiyalash mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun eng avvalo undagi rezervlarni, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko'z ilg'amaydigan bo'lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo'ladi.

Rezervlar har xil belgilarga qarab guruhlariga ajratilishi mumkin. Ular eng avvalo to'planish joyiga qarab ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo'yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo'yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo'yicha ham guruhlariga bo'lish mumkin. Bunday rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxona yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy rezervlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini "Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish" fanidan o'qiladigan ma'ruzalarda, amaliy

mashg'ulotlarda chuqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgandir. Tannarx rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;
2. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya etish;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarining bajarilishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda esa rejaning uzil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxona bo'limlariga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxona rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarning o'zida hisob qilinadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barqaror bo'lganda) uni Sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi.

3.2. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining konuniyatidir. U Mehnat unumdorligining tuxtovsiz o'sishi, Mehnatkashlar madaniy, texnikaviy darajasini yuksalishi, moddiy va Mehnat resurslaridan rasional foydalanish, Xo'jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning ahamiyati yildan yilga oshib bormokda, chunki uni pasaytirishning xar bir foizi absolyut xajmni oshirib yuboradi. Ya'ni korxonada ishlab chikarilayotgan mahsulotning tannarxini 1 %ga kamaytirish evaziga korxona ancha mikdorda moliyaviy resurslarini iktisod kilishga erishadi. Bu xar qanday korxonaning oldiga turgan eng dolzarb masalalrdan biri xisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishning yullarini keltiramiz. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnikani joriy kilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonalarining kamayishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan Mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jixozlarni zamonaviylashtirish xamda kulanilayotgan texnikadan foydalanishni xisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida utgan va jonli Mehnatni tejashga erishiladi. Moddiy resurslarda buyumlashgan utgan Mehnatni tejash xuddi shu mikdordagi xom- ashyo va materiallardan ko'prok mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdorligini oshirish imkonini beradi, ya'ni xar bir ishchiga xisoblanaganda ko'prok mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan-texnika tarakkiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilg'or texnologiya ishlab chiqarishni Boshqarishni takomillashtirish asosida Mehnat unumdorligi oshib boradi bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Moddiy va pul mablag'larini sarflashda kat'iy iktisodiy tejashga rioya kilish katta ahamiyatga ega. Asbob uskunalarni asrashga doir sarflarini kamaytirish, material shuningdek ishlab chiqarish chikindilaridan maksimal foydalanish. Brak natijasida ruy beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish xaqi fondini rasional sarflash sex va umumzavod xarajatlarini kamaytirish - bularning barchasi u yoki bu darajisida mahsulotning arzonlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy texnika ta'minotini yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaishiga olib keladi. Korxonaning xom-ashyo material, yokilgi va energiya yetkazib berishning o'zilib kolishi ishlab chiqarish ritmini bo'zishga bekor turtib kolishlariga oy oxirida xaybarakallachilikka va okibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi. Korxona iqtisodiyotga xaddan tashqari normativdan ortikcha zapaslarni bo'lishi xam salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zahira kupayib ketganda oborot mablag'lari oshib ketadi, moliyaviy axvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga Mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta'sir ko'rsatadi. X,ar qanday texnikadan xatto yangisidan xam ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil kilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik prosesslarni mexanizasiya va avtomatlashtirish bilan bir katorda, Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e'tibor berish kerak.

Mahsulot tannarxini pasaytirishda xisobotning roli kattadir. Xisob olib borish yokilgi va energiyadan, xom ashyo va materiallardan rasional foydalanishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytirish va korxona jamgarmasini oshirish ikonini beradi. Kolektivning kuchini yetishtirilladigan mahsulotning tannarxini pasaytirishga karatish uchun ishlab chiqarishga kilinadigan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va xisobga olish zarur. Iktisod kilish yullarni aniqlash ortikcha xarjatlarning sababini ochib tashlash uchun bu xarajatlarni doimi tahlil kilib turish kerak. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini tahlil kilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarning takomillashtirshiuchun muxim ahamiyatga ega. Lekin tahlil faqatgina tannarxning pasaytirsh rejasini bajarilishiga kuyilgan baho bilan chegaralanmaydi, u ishlab chiqarish xarajatlarini yanada kamaytirish uchun taxlikiy va texnikaviy xarakatlarni xam kurishi kerak.

Mahsulot ishlab chiqarishni tahlil kilishning ishchilarning aktiv ishtirok etishlari uni pasaytirishning muxim yulidir.

Xarajatlar korxonaga bog'liq bulmagan omillarga karab o'zgaradi. Masalan;

resurs narxi xar xil xizmat xakkining tebranishi korxona xoxishidan kat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish kulami kengaysa, resurslar sarfi kiskaradi, chunki ular kamrok isrof etiladi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlar keskin kiskaradi. O'rtacha xarajatlar Mehnat unumligiga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Mehnatni unumigining ortishi xam moddiy xam Mehnat sarfini kiskartiradi bozordagi narx binobarin tovar barqaror sharoit Mehnat unumdorligi xarajatlari pasaytirish orqali foydani kupaytiradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin xarajatlar qanchalik kiskarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish asosiy yo'nalishlaridan biri bu fan texnika tarakkiyotining yutuklaridan okilona foydalanishga erishishdir. Fan texnika tarakkiyoti yutuklaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom-ashyo materiallaridan yokilgi resurslaridan yanada tularok foydalanishga imkon beradi. Shuningdek yangi unumdorligi yukori bo'lgan samarador mashina, dastgoxda yangi texnologik jarayonlar yaratish, uni ishlab chiqarish joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. Fan texnika tarakkiyoti ning 20-asr ikkinchi yarmidagi o'ziga xos jixati prinsipal yangi texnologik usulga utilishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yukori iktisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuktai nazaridan moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xarajatlarni pasaytirish asosiy yo'nalishlardan biri bu ishlab chiqarish va Mehnat tashkil etishning takomillashtirishdir. Ushbu yo'nalish ishlab chiqarishda yukotishlarni kamaytirish yuli bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa o'z navbatida jonli Mehnatni iktisod kilishga ya'ni ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.

Samaradorlik iktisodiy kategoriya sifatida odamlarni ayrim extiyojlarini kondirishga karatilgan mahsulotlar kobiliyatlarini anglatadi. Samaradorlik mikdoriy

ulchov darajasiga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda eng avvalo yukori samaradorlik kupincha imkoniyatlari bilan birgalikda istyemol kilishdan xosil bo'lgan samaradorlikning yuksalishini izoxlaydi. Barcha samaradorliklar majmuasi eng yukori maksimal samaradorliklardan iborat ekanini izoxlash kiyin emas. Xar bir istyemol kilinayotgan yangi tovar o'zining eng yukori samaradorlik darajasiga teng samaradorlik darajasini kengaytiradi.

Maksimal samaradorlikni pasaytiruvchi konunga ko'ra navbatdagi xar bir istyemol kilinayotgan ne'matni yukori samaradorlik darajasi oldingi bosqichga nisbatan past bo'ladi.

Demak, bir ulchovga to'g'ri keluvchi qo'shimcha . ne'matlar xosil kilish samarasi oldingi bosqich da olingan natijalardan pastrok bo'ladi.

Iktisodiy samaradorlik bir necha iktisodiy kursatgichlar orqali tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha jo'ziy kursatgichlar orqali tavsiflanadi. Samaradorlikning umumiy kursatgichi Mehnat unumdorligidir. U umummahsulot mikdorining jonli Mehnat sarfiga nisbatan ifodalanadi. Jonli Mehnat sarfi kunlarda soatlarda xisoblanadi. Mehnat unumdorligi bilan birga Mehnat sigimi degan samaradorlik kursatgichi xam kullanadi. Mehnat sigimi jonli Mehnatni mahsulot mikdoriga nisbatan orqali aniklanadi. Mahsulotning material sigimi degan iktisodiy kursatgich xam bizning davrimizda katta ahamiyat kasb etmokda..

Material sigimi moddiy ashyolar sarfini mahsulot mikdori ga nisbatan orqali aniklanadi. Ishlab chiqarish fondlarini samaradorligi mahsulotning fond sigimi yoki fondlar kaytimi kursatgichlari orqali ulchanadi. Kurinib turibdiki jo'ziy kursatgichlar samaradorlik umumiy ifodasini aniqlashtirilgan shaklida bu nisbatlarda mahsulotlar mikdori kursatgichlari urnida jami mahsulot yalpi milliy mahsulot, jami ichki mahsulot, sof mahsulot, qo'shimcha mahsulot, uning pul shakllaridan biri foyda milliy daromad kabi kategoriyalar kullaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ayniksa, respublikamizning xozirgi sharoitida samaradorlikni oshirish juda jiddiy masaladir. Gap shundaki, xozirgi davrda kupgina resurslar chegaralangan ularning aksariyat qismi xorijdan keltiriladi,

zamonaviy texnologiya yetishmaydi, kadrlar malakasi yukori emas. Shuning uchun resurslardan tejamli foydalanish, Mehnat unumdorligini oshirish milliy va xorijiy sarmoyalarni eng zarur soxalarga joylashtirish yukori malakali kadrlar tayyorlash kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarlicha e'tibor berish talab kilinadi.

Lekin oxirgi yillarda mamlakatimizda mamlakatimizda inkirozga karshi choralar dasturi asosida qilingan ishlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 18 foizga tushirishga erishildi. Bu jaxon moliyaviy iktisodiy inkirozi kechayotgan bir paytda juda katta natijadir. Bunday ishlar albatta korxonalar barqarorligini yanada oshiradi. Chunki ishlab chiqarish tannarxi pasaytirilsa, mahsulot sotish bahosi xam nisbatan pasaytirilishi mumkin, bu esa bunday sharoitda mamlakatimizdagi iste'molchilari uchun ayni muddao bo'ladi.

Olmalik kon - metallurgiya kombinati , "O'zmetakom" aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmalari, «O'zeltexsanoat» uyushmasi, "O'zkurilishmateriallari" kompaniyasi singari va Boshqa korxona va tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 20-25 foizga kamaydi.

Bu korxonalar ishlab chikaradigan tayyor mahsulotlari Boshqa ishlab chiqarish korxonalari uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Masalan Olmlik kon- metallurgiya kombinati ishlab chikarayotgan mis katodi va Boshqa mahsulotlari O'zkabel korxonasida turli elektr o'zatuvcchi simlar ishlab chiqarishda xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Demak yukorida bir korxonaning mahsulot ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, ikkinchi korxonaning xam mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga olib keladi.

Inkirozga karshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yo'nalishlardan biri - mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport saloxiyatini mustaxkamlash buldi. Bu esa bunday korxonalar yanada barqaror ishlashida muxim ahamiyat kasb etdi. Buning uchun korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish uchun ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida kat'iy choralar kurildi.

Energiya manbalari va kommunal xizmatlar narxlarining asossiz oshishiga yul

kuymaslik, Sanoat korxonalarda texnologik jarayonlarni optimallashtirish xisobidan mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport narxlarini shakllantirishga doir yangi mexanizmlarni joriy etish, bank kafolatlari muddatlarini o'zaytirish, qo'shimcha . qiymat soligini kaytarish muddatini qisqartirish va Boshqa rag'batlantirish choralari shular jumlasidandir.

Demak mamlakatimizda inkirozga karshi choralar dasturidan kelib chikib, Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi urganilib, mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi xarajatlarni asossiz oshirilishiga yul kuyilmagan. Bu esa korxonalarning moliyaviy holati yanada yaxshilanishiga turtki bo'lgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korxonalarni qo'llab quvvatlash maqsadida, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda imtiyozli kreditlar berilishi xam muxim ahamiyatga egadir. Inkirozga karshi dasturdagi amalga oshiririladigan yo'nalishlardan biri xam shundan iborat buldi. Ya'ni mahsulot eksport qiladigan korxonalarga mamlakatimiz banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berildi. Bu esa ularning yanada barqaror ishlab chiqarishga yordam berdi. Birgina utgan yilning o'zida bu korxonalarga aylanma mablag'larini kupaytirish uchun umumiy mikdori 233 milliard so'mdan iborat imtiyozli kreditlar berildi. Ma'lumki eksport kiluvchi korxonalar mahsulot eksport kilganda, xar doim xam ishlab chiqarish bir xil boravermaydi. Chunki bunday sharoitda sotilgan mahsulot puli o'z vaktida kelib tushmasligi yoki ishlab chikarilgan mahsulotga talab oshishi yoki bulmasa ko'prok mahsulot ishlab chiqarish uchun texnika-texnologiyalarning yetishmasligi natijasida korxonlarda vaktinchalik mahsulot ishlab chiqarish tuxtab kolishi yoki belgilangan mikdorni ishlab chiqarishga ulgurmasligi mumkin. Bunda banklarning imtiyozli kredilar berilishi korxonalar uchun juda katta yordam bo'ladi. Bunda birinchidan ishlab chiqarish tezlashadi, bu degani birinchidan Mehnat unumdorligi oshadi, ikkinchidan asosiy vositalar rentabelligi oshadi. Bu ikkita ko'rsatkichlar xam bevosita korxona mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi o'zgarmas xarajatlarga bog'liqdir. Buning natijasida esa korxonada mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yanada pasayadi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning barqaror ishlashini ta'minlashga, 2011 yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga oshirishga erishdik. Bu esa mamlakatimizda korxonalar iktisodiy tarakkiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakatimizda ishlab chikarilayotgan mahsulotlarni jaxon bozoriga tanitadi. Bu esa o'z-o'zidan keyinchalik xorijiy davlatlarning mamlakatimiz bilan turli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli ishlar kilishiga zamin yaratadi.

Xulosa

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik yangilash va diversifikasiya qilish, inovasion texnologiyalarni keng joriy etish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilib, iqtisodiyotimiz salohiyatini o'sishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olib borilgan ishlar, inkirozga karshi choralar dasturining ishlab chikilishi bunday salbiy natijalarning o'z vaktida oldini olishga erishildi. Xozirgi kunda butun jaxon iktisodchi olimlari, yetakchi mutaxassislar tomonidan mamlakatimizda inkirozga karshi olib borilayotgan ishlarga ijobiy baholar berilib, O'zbek modeli qanchalik to'g'ri ekanligini tan olmokdalar, xamda mamlakatimiz tajribasini o'rganish muxim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamokdalar. Mamlakatimiz jaxonda moliyaviy-iktisodiy inkirozdan talofatsiz chikkan sanokli davlatlardan biri bulishga erishdi.

Sanoat korxonalarda xar doim xam mahsulot ishlab chiqarish tannarxini takomillash uni pasaytirishga karatilgan ishlar olib borilgan. Chunki bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoiti ekan, korxonalar nafaqat ichki bozorlardja balki tashqi bozorlarda, o'z raqobatbardoshligini oshirishga xarakat qiladi. Lekin bu ishlar, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishning ahamiyati jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi sharoitida tobora oshdi. Buning uchun mamlakatimizda korxonalarni, ayniksa xorijga mahsulot eksport kiluvchi korxonalarni xar tomonlama kullab quvvatlash maqsadida imtiyozlar, rag'batlantirishlar berildi. Inkirozga uchrab bankrot bo'lgan korxonalarni kayta ishga tushirishga davlat tomonidan turli choralar kurildi.

Mamlakatimizda inkirozga karshi choralar dasturida eng ahamiyatli ishlardan biri, mamlakatimiz banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida, davlatimiz tomonidan ularning ustavini keskin oshirildi. Bu esa banklarning korxonalar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarini juda yaxshiladi. Korxonalarning banklardagi pul mablag'larining tez va o'z vatida aylinishi ta'minladi. Bu esa korxonalarning ishlab chiqarishini o'z vaktida bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari banklarning zaxirasi oshirilishi, korxonalarga turli

imtiyozli kreditlar bera olish imkoniyatini oshirdi. Natijada mamlakatimizda juda kup korxonalar, ayniksa xorijga mahsulot eksport kiluvchi korxonalar banklarda imtiyozli kreditlar olishga muvaffak buldi. Buning natijasida esa korxonalar ishlab chiqarish xajmi xamda sifati oshirildi. Eksportyor canoat korxonalarda mahsulot sotilishida pul mablag'lari o'z vatida kelib tushmasligi natijasida vaktinchalik ishlab chiqarishning o'zilishi oldi olindi. Buning natijasida esa mahsulot unumdorligi oshirildi, korxona o'z aktivlaridan samarali foydalanib ularning rentabelligi darajasi yanada oshirildi. Bu esa o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga kiruvchi doimiy ya'ni o'zgarmas xarajatlar xajmi kamaytirilishi natijasida umumiy mahsulot tannarxi kamaytirilishiga erishildi.

Sanoat korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda korxona moliyaviy holati ning yukoriligi juda ahamiyatga ega. Korxonalarning mahsulot ishlab chiqarishida kerakli bo'lgan zamonaviy texnologiyaning sotib olinishi mahsulot sifatini xamda xajmini oshirib, juda kup ijobiy natijalarni keltirib chikaradi. Bulardan eng asosiysi Mehnat unumdorligi. Chunki bugungi kunda mahsulot ishlab chiqarishda eng katta xarajatlardan biri Mehnatga xak to'lash xarajatlaridir. Ayrim sanoat korxonalarda, masalan kompyuter dasturlari ishlab chikaruvchi va uni tuzatuvchi sanoat korxonalarda eng katta xarajat Mehnatga xak to'lash xarajatlari xisoblanadi. Bunday sharoitda korxonada ishchi xodimlardan samarli foydalanib, ular ishlab chiqarishini kupaytirish xamda mahsulot sifatini oshirish juda katta ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida korxona mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yanada tushadi.

Korxonada uzoq muddatli aktivlariga amartizasiya xisoblash uchuli xam ahamiyatlidir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining tez o'zgaruvchan bir sharoitida amartizasiya xisoblashning tezlashtirilgan usulining o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Mahsulot ishlab chiqarishda tezlashtirilgan amartizasiya usulini kullash, bir tomondan vaktinchalik mahsulot ishlab chiqarish tannarxini oshirsada, lekin amartizasiya xisobi natijasida korxonaga kup pul mablag'lari kelib tushadi. Bu esa yukorida aytib utganimizdek kup ijobiy natijalarga olib boradi. Boshqa tomondan esa

boshlang'ich yillarda tezlashtirilgan usulda ko'p mikkordan amartizasiya xisoblash natijasida mahsulot tannarxi oshishi, keyingi yillarda kam amartizasiya xisoblaydi va mahsulot tannarxi kamayadi.

Mehnat unumdorligi oshirilishi natijasida mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmadan xam samarali foydalangan bo'ladi. Bu ajratma xam korxona uchun asosiy xarajatlardan biri bo'lib, Mehnatga xak to'lash xarajatlariga to'g'ri proporsional xisoblanadi. Agarda korxona Mehnatga xak to'lash xarajatlarining samaradorligiga erishilsa, o'z navbatida mazkur xarajatning xam samaradorligiga erishgan bo'ladi.

Demak korxonalar xar qanday vaziyatda, jumladan iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mahsulot sifati xamda xajmini oshirishi, turli davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan okilona foydalanishi, ishchi va xodimlaridan yanada samarali foydalanishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishi mumkin ekan. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini yanada oshiradi.

Yukoridagi xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi takliflarini keltirdik:

1. Sanoat korxonalarda xom ashyo va materiallardan samarali foydalanish, ya'ni ulardan ortikcha isrofgarchilikka yul kuyilmasligi lozim. Aks xolatda korxonaning xom ashyo va materiallarga bo'lgan xarajatlarini oshirib mahsulot ishlab chiqarish tannarxini oshiradi. Agarda ulardan okilona foydalanishni yo'lga kuyilsa mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga erishgan bo'ladi.
2. Korxona ishchi xodimlaridan samarali foydalanishni yo'lga kuyish orqali Mehnat unumdorligini oshirish lozim. Ulardan mahsulot ishlab chiqarishda sifati va mikkdorining yaxshilashi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim. Mehnat unumdorligi qancha oshsa mahsulot tannarxi xam shuncha kamayadi.
3. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni yo'lga kuyish lozim. Ishlab chiqarishda kam samara berayotgan asosiy vositalarni Sotishi yoki Boshqa Xo'jalik yurituvchi subyektlarga ijaraga berish lozim. Natijada amartizasiya kam

xisoblanib, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini yanada kamaytiradi.

4. Uzluksiz ravishda korxonada barcha xisob kitoblarni olib borish xamda tahlil kilish lozim. Amartizasiya xisoblash usulining eng maqbulinitanlash kerak. Eng maqbul deganda shu korxonaning shu davrdagi sharoitidan kelib chikadi. Tezlashtirilgan amartizasi usulini tanlashi natijasida korxonaga ko'prok pul mablag'lari keladi. Buning natijasida korxona turli operasiyalarini moliyalash imkoniga ega bo'ladi yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnikani tezrok olishga imkoni bo'ladi. Bu esa keyinchalik ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga imkon yaratadi.
5. Banklar tomonidan takdim etilayotgan imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish lozim. Bunda korxona ishlab chiqarishdja turli o'zilishlarni oldini olib o'z vaktida ishlab chiqarishni amalga oshirib, realizasiya kilishi mumkin bo'ladi. imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish natijasida Mehnat unumdorligi xam oshadi. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga zamin yaratadi.
6. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mahsulot realizasiya kilishda, eng maqbul to'lov usuli oldindan to'lashni ta'minlash lozim. Bu esa korxonada debitorlik karzlarini oshib ketish oldini oladi va ishlab chiqarish bir maromda borishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010 y.
2. "O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'ri sida"gi 2000 yil 14 dekabrda Konuni. //Soliklar va bojxona xabarleri, 2001 yil №2.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xususi korxona to'g'ri sida"gi 2003 yil 11 dekabrda Konuni. // Solik va bojxona xabarleri, 2004 yil 10 fevral, №6.
4. O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi Davlat byudjetining parametr lari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozi to'g'ri sida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-1024-sonli Karori, 29 dekabr 2008 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Davlat byudjetining parametr lari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozi to'g'ri sida" O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining PK-1245-sonli Karori, 22 dekabr 2009 yil.

6. “Mamlakatimizni modernizasiya kilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi”. Prezident I.A.Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iktisodiy isloxlarni chukurlashtirishning eng muxim ustuvor yo’nalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma’ro’zasi // Xalk so’zi, 2009 yil 14 fevral.
7. Prezident I.A.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik Palatasi va Senatining kushma majlisidagi ma’ro’zasi. 2005 yil 28 yanvar.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz tarakkiyoti va xalkimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010. 38-bet
9. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari. -T.: O’zbekiston, 2009. - 56 b.
10. Karimov I.A. “Vatanimizning bosqich ma-bosqich va barqaror tivojlanishini ta’minlash - bizning oliy maqsadimiz” , - T.: “O’zbekiston”, 2008, 24 bet
11. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni madernizasiya va islox etishdir”, - T.: “O’zbekiston”, 2005, 83 bet.
12. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to’g’ri sida. -T.: O’zbekiston, 2005y. T.1. - 465 b.

-55-

13. Vaxobov A., Jumayev N., Xoshimov E. “Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta’sirini yumshatish yullari” - T., “Akademnashr” - 2009 y. 123- bet
14. Vaxobov A, Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2008. 354 b.
15. Vavilov A. Gosudarstvennyy dolg: uroki krizisa i prinsipy upravleniya. -M.: Gorodes-izdat, 2001.
16. Yermasova N.B. «Finansovyy menedjment», Moskva - «Vysssheye obrazovaniye» - 2008g. , 46 str.

17. Karaseva M.V., Kroxina Yu.A. Finansovoye pravo. - M.: NORMA, 2001.- 230 s.
18. Karaseva I.M., Revyakina M.A. Finansovyy menedjment. - M.: OMEGA - L, 2008.- 21, 27s.
19. Godme P.M. Finansovoye pravo. - M.: Progress, 2003. - 425 s.
20. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. Ukuv kullanma / Toshkent Moliya instituti. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 84 bet.
21. Malikov T.S., Xaydarov N.X- Moliya: umumdavlat moliyasi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 456 bet.
22. Mirzayev F.I. "Banklararo raqobat:moxiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari" (Monografiya), Toshkent -"Moliya" - 2008, 147- bet
23. Babich A., Pavlova L. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000.
24. Bryummerxoff D. Gosudarstvennyye finansy: teoriya gosudarstvennykh finansov/ Per. s nem. pod red. A.Kudrina, V.Dzgoyeva. Vladikavkaz: Pioner-Press, 2002.
25. Bushmin Ye. V. Byudjet: procedury i effektivnost. - M.:Alternativa- Yevrolins, 2003.
26. Pavlova L.N. "Finansovyy menedjment" Moskva - "Yuniti" - 2003, 203 str.
27. Pod red. M.V.Romanovskogo «Финансы» учебник, - Moskva - «Yurayt-Izdat», 2007 g. 36 str.
28. Pod red. G.N.Beloglazovoy «Дengi, kredit, banki» учебник, - Moskva - «Yurayt-Izdat», 2007 g. 36 str.
29. "Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi sharoitida moliya va byudjet tizimini takomillashtirish masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (II qism) (2010 yil, mart). T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2010. -94 bet
30. "Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi sharoitida buxgalteriya xisobi, audit va tahlilni takomillashtirish masalalari" mavzusida respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari (II qism) (2009 yil 11-12 dekabr). T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. -174 bet

31. Solik to'lovchining jurnali. 2006-2010.
32. Bozor, pul va kredit jurnali. 2006-2010.
33. O'zbekiston iktisodiy axborotnomasi jurnali. 2006-2010.
34. Soliklar va bojxona xabarlar gazetasi. 2006-2010.
35. Ekonomicheskoye obozreniye jurnali 2006-2010
36. www.lex.uz
37. www.uzex.com
38. www.uzmarkaz.com
39. www.mf.uz
40. www.xbu.uz
41. www.soliq.uz
42. www.stat.uz
43. www.bank.uz
44. www.bankir.uz
45. www.cfin.ru
46. www.ziyokor.uz
47. www.finance.ru
48. www.menegment.ru